



O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY VA O‘RTA
MAXSUS TA’LIM VAZIRLIGI
QARSHI DAVLAT UNIVERSITETI

O‘ZBEK TILSHUNOSLIGI KAFEDRASI

Raxmatova Shahloning

“5220100-O‘zbek filologiyasi” ta’lim yo‘nalishi bo‘yicha
bakalavr darajasini olishi uchun

*“Pragmalingvistika- tilshunoslikning yangi
yo‘nalishi ”*
mavzusidagi

BITIRUV MALAKAVIY ISHI

Ilmiy rahbar :

dots. I.Xudoynazarov

Himoyaga tavsiya etildi”

Filologiya fakulteti

dekani _____ dots. I.Xudoynazarov

“ _____ ” _____ 2012 yil

Qarshi - 2012 yil

M U N D A R I J A

Ishuning umumiy tavsifi	
Kirish	
I-bob. O`ZBEK TILSHUNOSLIGIDA SISTEMAVIYLIK	
TAMOYILI	
1.1.Sistema tushunchasi haqida ma`lumot	
1.2.O`zbek tilshunosligida formal va formal-funksional yo`nalish	
II-bob. Struktural tilshunoslikdan pragmalingvistikaga.....	
2.1. Pragmatik yo`naliShuning shakllanishi	
2.2. Lingvistik pragmatikaning amaliy va nazariy shakllanishi.....	
2.3. Lingvistik pragmatikaning birliklari	
2.4. KTMDning hayotga tadbiqu va pragmalingvistika oldida to`rgan vazifalar	
Umumiy xulosalar	
Foydanilgan adabiyotlar ro`yxati	

Qarshi davlat universiteti Filologiya fakulteti
5220100 – Filologiya (o‘zbek filologiyasi) ta’lim yo‘nalishi
talabasi Rahmatova Shahloning bitiruv malakaviy ishiga

T A Q R I Z

Rahmatova Shahloning “Pragmalingvistika tilshunoslikning yangi yo‘nalishi” mavzusidagi bitiruv malakaviy ishisida lisoniy birlik serqirra, ko‘p tomonli va murakkab bo‘lganligi sababli uning mohiyati shu birlik u yoki bu shaklda, har xil majmualarda namoyon etadigan barcha belgilarni o‘zida mujassamlashtirishi, mana shu sifatlar majmuasi asosida boshqa birliklar bilan xilma-xil aloqalarga kirishishi, shuning uchun uning mohiyati hamisha murakkab va serqirra bo‘lishi alohida qayd qilinib, o‘ziga xos iboralar misolida tahlil qilingan.

Ishda dialektikaning umumiylik, mohiyat, imkoniyat, sabab (UMIS) va alohidalik, hodisa, voqelik, oqibat (AHVO) kategoriyalari haqidagi ta’limoti, u bilan tarixan bog‘liq bo‘lgan tasavvuf bilish nazariyasi tashkil etadi.

Aniq lisoniy tahlil jarayonida tilni tavsiflash, unda sistemaviy munosabatlarni aniqlash usullaridan foydalaniladi. Sistema mohiyatini ochish, sistema, element, munosabat tushunchalarini sharhlash jarayonida qisman matematik modellashtirishdan ham foydalanildi.

Strukktural tilshunoslikning muhim masalalaridan biri - lisoniy birlik va nutq birligi, ularning belgi-xususiyatlari orasidagi farqlar muammosini o‘rtaga qo‘yadi. Odatda, lisoniy birliklar sifatida fonemalar, morfemalar, leksemalar, lisoniy qoliplar ajratiladi. nutq birliklari sifatida esa harf, tovush, bo‘g‘in, so‘z, so‘z birikmalari, gaplarni ko‘rsatadilar .

Fanimiz ham shu vazifaga xizmat qildi: tilimiz sistemasini (ya‘ni umumiyliklarni) uning voqelanishi bilan birgalikdagi tavsifini berdi. Bunda tadqiq manbaining taShui, shakliy tomoni tadqiqotni birlashtiruvchi,uning butunligini ta‘minovchi omil vazifasini o‘tadi. Shuning uchun bu yo‘nalish formal yo‘nalish deb nomlanishi mumkinligi izohlangan.

Pragmalingvistlar va kognitologlar bir xilda lisoniy tafakkur faoliyati shu faoliyat asosida yo`zaga keladigan lisioniy-mantiqiy hodisalar - presuppozitsiya, implikatura, illokutiv maqsad kabilarning muloqot matnida voqelanishi muammolari bilan banddirlar. Nutq ijodi faoliyatida uchraydigan pao`za, sukut saqlash, ikkilanish kabi hodisalarning botiniy kognitiv jarayon hodisasi ekanligini bilamiz, ammo ularning aslida kommunikativ maqsad ifodasi uchun xizmat qilishlarini ham unutmaslik lozimligini izohlab beradi.

Sh.Rahmatovanning mazkur bitiruv malakaviy ishi bakalavr darajasini olish uchun yozilgan malakaviy ishisi tugallangan ilmiy ish bo`lib, barcha talablar asosida bajarilgan.

Qarshi DU O`zbek tilshunosligi kafedrası

Katta o`qituvchisi f.f.n.

O.O`rinova

Qarshi davlat universiteti Filologiya fakulteti
5220100 – Filologiya (o‘zbek filologiyasi) ta’lim yo‘nalishi
talabasi Rahmatova Shahloning bitiruv malakaviy ishiga

T A Q R I Z

Ma’lumki, istiqlol davrida til fani mustaqil bir sistema sifatida o‘rganilar ekan, u lisoniy tizimni, lisoniy imkoniyatlarni o‘rganishga ko‘p e’tibor qaratadi shu bois lingvistika keng rivojlanmoqda. Nutq lingvistikasi esa lisonshunoslik soyasida qoldi va tilshunoslarning asosiy e’tibori tildagi sistemaviy paradigmatic munosabatlarning o‘rganilishiga qaratilib, nutq lingvistikasiga kam e’tibor berildi. Bu strukturalizm asoschisi sanalgan Sossyur o‘zi ham nutq lingvistikasiga murojaat etmaganligi bilan uzviy bog‘liq bo‘lsa kerak, chunki Sossyur o‘qigan ma’ro‘zalarning bayoni sanalgan "Umumiy tilshunoslik kursi"da ham nutq lingvistikasi bo‘limi Sossyur tomonidan o‘qilgan yoki o‘qilmaganligi haqida aniq ma’lumot yo‘q.

Mana shu ma’noda Rahmatova Shahloning “Pragmalingvistika tilshunoslikning yangi yo‘nalishi” mavzuidagi 5220100 – filologiya (o‘zbek filologiyasi) shifrlı bakalavr darajasini olish uchun yozilgan bitiruv malakaviy ishi Strukturalizmning xilma-xil oqim va maktablari haqida, tilshunoslik "XX asr tilshunosligi", "zamonaviy tilshunoslik" sifatida keng o‘rganishga bag‘ishlanganligi bilan dolzarbdir.

Bitiruv malakaviy ishining birinchi bobi O‘zbek tilshunosligida sistemaviylik tamoyili deb nomlanib, ikki bo‘limni tashkil etadi. Ushbu bobda o‘sha davrlarda (XX asrning boshlarida) fanda (va hatto falsafada) naturalistik yo‘nalish juda kuchli edi . Shuning uchun sistemaning yangicha, nonaturalistik talqini tarafdorlari o‘z misollarini biologik hodisalar asosida tushuntirishga va o‘z fikrlarini asoslashga urinar edilar. Shunday misollardan biri "odam ko‘zi" (aniqroqi "ko‘z olmasi") bilan bog‘liqdir. Bu a‘zo odam uchun qanday ahamiyatga ekanligi hammaga ayon ekanligi xususida misollar asosida yoritilgan.

Malakaviy ishning ikkinchi bobi esa “Struktural tilshunoslikda pragmalingvistika” deb nomlangan. Har qanday fan sohasining shakllanishi va

rivoji ushbu soha obektiga nisbatan qiziqish paydo bo'lishdan boshlanadi. Qiziqishdan esa savollar tug'iladi. Tilshunoslik ham bundan mustasno emas. Ushbu fanning yuzaga kelishi va taraqqiyoti bevosita til tizimi, lisoniy birliklarning qurilishi, tarkib topishi va ulardan kundalik hayotda, ijtimoiy faoliyatda foydalanishga oid savollarga javob izlashdan boshqa narsa emas.

Umuman olganda, muallif juda katta mehnat sarflagan, buni murojaat qilingan adabiyotlarning ko'pligi ham, tahlilga tortilgan materiallarning mo'lligi ham tasdiqlab turibdi.

Ishda barcha ishlarda bo'lganidek, mulohazali o'rinlar ham yo'q emas. Sh.Rahmatovanning bakalavr darajasini olish uchun yozilgan bitiruv malkaviy ishi tugallangan ilmiy ish bo'lib, barcha talablar asosida bajarilgan.

Qarshi muhandislik iqtisodiyot instituti

Tillar kafedrasi mudiri dotsenti:

O.Begimov

KIRISH

Strukturalizm tilni mustaqil bir sistema sifatida o`rganar ekan, lisoniy tizimni, lisoniy imkoniyatlarni o`rganishga ko`p e`tibor qaratdi va shu bois lisonshunoslik keng rivojlandi. Nutq lingvistikasi esa lisonshunoslik soyasida qoldi va tilshunoslarning asosiy e`tibori tildagi sistemaviy paradigmatic munosabatlarning o`rganilishiga qaratilib, nutq lingvistikasiga kam e`tibor berildi. Bu strukturalizm asoschisi sanalgan Sossyurning o`zining ham nutq lingvistikasiga murojaat etmaganligi bilan o`zviy bog`liq bo`lsa kerak, chunki Sossyur o`qigan ma`ro`zalarning bayoni sanalgan "Umumiy tilshunoslik kursi"da ham nutq lingvistikasi bo`limi Sossyur tomonidan o`qilgan yoki o`qilmaganligi haqida aniq ma`lumot yo`q.

Strukturalizmning xilma-xil oqim va maktablari keng rivojlanib, lisonshunoslik "XX asr tilshunosligi", "zamonaviy tilshunoslik" sifatida keng ommalashgach, yangilik tarafdorlari Sossyur diqqatidan chetga qolgan sohaga - nutq lingvistikasiga ham e`tibor bera boshladilar. Shunda juda ko`p tilshunoslar (chunonchi, E.R.Atayan, V.N.Voloshinov, R.T.Yarovikova va boshqalar) Sossyurning "nutq sof xususiy, individual nutqda hech qanday umumiylik yo`q" degan fikrlariga qarshi chiqdilar va hatto lison~nutq farqlanishi asossiz ekanini isbotlashga intildilar, ya`ni Sossyur eng muhim deb bilgan lison va nutq farqlanishini inkor etishga intildilar. Bu inkorning ham o`ziga xos asosi mavjud edi. Bu asos shundan iborat ediki, alohida bir shaxs muloqot jarayoniga kirishar ekan, (fikrini, his-tuyg`usini, munosabatini yozma yoki og`zaki shaklda bayon etar ekan) uning oldida maqsad turadi. Bu maqsad so`zlovchining boshqalar uni tushunishi, anglashidan iboratdir. So`zlovchi va tinglovchining biri-birini tushunishi va anglashi faqat ular uchun umumiy asos mavjud bo`lgandagina amalga oshishi mumkin. Shuning uchun lison qanchalik ijtimoiy, so`zlovchi va tinglovchi uchun umumiy, majburiy bo`lsa, nutq ham ular uchun shunday umumiy, majburiy va ijtimoiydir. Ammo lisoniy tizimda ayni bir xil mazmun va munosabatni ifodalaShuning yo`zlab omillari mavjud. So`zlovchi esa mana shu imkoniyatlar xazinasidan qay birini tanlash va qo`llash erkinligiga ega. Lison va

nutqni farqlashga asoslangan tadqiqotlarda va bu farqlaniShuni to`la inkor etadigan ishlarda asosiy kamchilik shundaki, ularda lison va nutqqa nodialektik yondashilib, ular bir-biridan o`zilib (yoki, aksincha, bir-biriga tenglashtirib) qo`yildi . Buning gnoseologik, metodologik asosi esa lison va nutq kabi ikki hodisani insoniy tafakkurning mahzani bo`lgan falsafiy dialektik ta`limotdan o`zishdir. Nodialektik yondashish esa istasak-istamasak fetishizmga, ya`ni o`zaro bog`liq bo`lgan tomonlarni bir-biridan o`zishga, ularning goh u, goh bu tomonini mutlaqlashtirishga olib keladi.

Lison va nutq mohiyatan bir butunlik bo`lgan nutq faoliyatining ikki tomonidir va ularni bir biridan o`zish mutlaqo mumkin emas. Ularga dialektik falsafaning, bir tomondan, umumiylik, mohiyat, imkoniyat, sabab, zaruriyat, majburiyat (UMISM), ikkinchi tomondan, alohidalik, hodisa, voqelik, oqibat, tasodif, erkinlik (AHVOE) kabi kategoriyalari orasidagi munosabatlar nuqtai nazaridangina yondashish mumkin. Bunda alohidalik - umumiylikning, hodisa - mohiyatning, voqelik - imkoniyatning, oqibat - sababning, tasodif - zaruratning, erkinlik - majburiyatning yo`zaga chiqishi, voqelanishi, moddiy shaklda bevosita ko`zatishda berilgan ko`rinishidir. Shuning uchun har bir alohidalik bevosita ko`zatishda berilmagan, idrokiy usul bilan ochiladigan, aql bilan ilg`ab olinadigan umumiylikning, har bir hodisa - shunday mohiyatning, voqelik - imkoniyatning, oqibat esa sababning, tasodif zaruratning, erkinlik majburiyatning - umuman har bir AHVO o`zi aloqador bo`lgan bir UMISning tajallisi ekanligini hech qachon esdan chiqarmasligimiz kerak.

ISHUNING UMUMIY TAVSIFI

Mavzuning dolzarbligi. Milliy istiqlol ona tilimizning ijtimoiy-siyosiy mavqei, ma'naviy nufo'zini oshirish bilan birga tilshunosligimizni "O'zbek tili hodisalarini rus tili qoliplariga solib tushuntirish" tutqunligidan ham ozod qildi, unga mustaqil taraqqiyot yo'liga o'tib, milliy ong, milliy tafakkur va mafkuraning muhim suyanchiqlaridan, yosh avlodga ijodiy tafakkur ko'nikmalarini singdirdi. Shuning asosiy vositalaridan biriga aylanishga imkon berdi. Qisqa davr ichida fanimizda bir necha yangi yo'nalishu maktablar shakllandi va ular jadal rivojlanmoqda. Shuning uchun keyingi yillarda lisoniy qurilishning umumiy qonuniyatlarini O'zbek tili materiallari asosida yangicha tadqiq va tahlil qilishga qaratilgan izlanishlar silsilasi yo'zaga keldi va salmog'i kundan-kunga oshib bormoqda.

Lisoniy birliklarni ratsional-struktural tadqiq usullarida o'rganish natijasida ochilgan til qurilishi tizimiy imkoniyatlarini muayyan nutqiy faoliyat jarayonida tahlil etishi o'z oldiga maqsad qilib qo'ygan imperik-pragmatik tilshunoslik o'zbek tilshunosligida shakllanayotgan, yosh ilmiy yo'nalish bo'lib, bu sohadagi izlanishlar endigina boshlanmoqda, bu yo'nalishda ilk o'quv qo'llanmalar yaratilmoqda. Shuning uchun ushbu tadqiqot oldiga qo'yilgan pragmatik lingvistikaning tilshunoslik turkum fanlar orasidagi o'rnini, lingvistik pragmatika, uning amaliy va nazariy shakllanishi, lingvistik pragmatikaning birliklari kabi muammolar nafaqat o'zbek tilshunosligida, balki jahon tilshunosligida ham dolzarb masalalardan sanaladi. Tadqiq mavzusining dolzarbligi mana shu bilan belgilanadi. Mavzunin g o'rganilish darajasi. Tilshunoslik adabiy tillar tavsifini o'tgan asrning ikkinchi choragida deyarli yakunladi. XX asrning ikkinchi choragida yadro fizikasi va kimyoviy fizika, genetika va kibernetika ta'siri ostida fanimizda strukturalizm - til sistemasini, uning struktur birliklari va ular orasidagi barqaror munosabatlarni (oppozitivliklarni) o'rganishga alohida e'tibor berish kuchaydi va "zamonaviy tilshunoslik" mavqeini egalladi. Struktural yondashish o'tgan asr oxirlariga kelib yuksak taraqqiyot cho'qqilariga ko'tarildi. XX asr oxirlarida bozor iqtisodiyotining

rivojlanishi, kompyuterlarning ommalashishi, nazariy xulosalarni amaliyotda qo'llash va iqtisodiy samaradorlikni yuksaltirish kun tartibiga ko'chgach, tilshunoslikda ham amaliy vazifalarga - nutq samaradorligi tadqiqiga e'tibor berish kuchaydi. Pirovard oqibatda fanda sotsiolingvistikaning yangi tarmoqi **pragmatik lingvistika** "zamonaviylik" to'nini kiydi-yu, strukturalizm – g'arbda juda keng ommalashgan Jon Layonzning asarlarida sistem tilshunoslikdan pragmatikaga semantika orqali ko'prik tashlashga harakat qilingan bo'lishiga qaramay - "eski, qoloq, o'tmish" fani holatiga tushdi . Yangi davr (XX-XXI asr) tilshunosligi - pragmatika nutqqa insoniy faoliyat - fikr almashtirish va o'zgalarga ta'sir ko'rsatish, yaratish va bunyod qiliShuning asosiy turlaridan biri sifatida yondashib, uning ixchamligi, samaradorligi va ta'sirchanligi, mantiqiyliigi tadqiqini birinchi o'ringa qo'ydi.

Roman-german tillarida P.Grays, T.A.Deyk, Dj.R.Serl, D.Frank kabi yirik olimlar; rus tilshunosligida A.A.Akishina, N.D Arutyunova, Sh.Balli, V.V.Bogdanov, A.M.Bushuy, M.S.Kagan, S.D.Kasnelson, L.P.Krisin, A.A.Leontev, N.I.Formanovskaya, L.V.SHerba; o'zbek tilshunosligida T.A.Bushuy, SH.Iskandarova, M.Kamolova, S.Mo'minov, A.Nurmonov, B.Rahmatullayeva, SH.Safarov, O`rinboeev, D.O`rinboyeva, M.Hakimov kabi qator olimlar pragmatika va uning tadqiq predmeti, undagi asosiy tushuncha va tamoyillar bilan bir qatorda muloqot jarayonini stilistik, sotsiolingvistik, psixolingvistik va metodik jihatlaridan o`rganishgan.

Tadqiqotning maqsad va vazifalari. Tadqiqotning bosh maqsadi sistema mohiyatini ochishga, sistema, element, munosabat tushunchalarini sharhlashga; lingvistik pragmatikaning nazariy va amaliy shakllanishi, uning birliklarini tavsiflashga qaratilgan.

Ushbu maqsad asosida quyidagi vazifalar o`rtaga qo`yildi:

- O'zbek tilshunosligida tilning sistemaviyliigi masalalarini yoritish, til sistemasining, lison va nutq munosabatlarining formal-funksional talqini, uning asosiy omillarini ochish, "sistema" va "sistemalashtirish" tushunchalarining farqini

berish, "an'anaviy tilshunoslik" va "zamonaviy tilshunoslik" zidlanishining sun'iy ekanligini ko'rsatish;

- formal-funksional talqin usulida til tizimi sistemaviyligi va yaxlitligini ta'minlovchi eng asosiy omillarni izohlash;
- pragmatika tilshunoslik fanining alohida bo'limi sifatida shakllanishining tarixiy ildizlarini aniqlash;
- lingvistik pragmatikaning umumnazariy masalalarini ajratish;
 - lingvistik pragmatik birliklarni informema va pragmemalar sifatida tasniflash;

Tadqiqotning metodologik asosi va metodlari. Ishda dialektikaning umumiylik, mohiyat, imkoniyat, sabab (UMIS) va alohidalik, hodisa, voqelik, oqibat (AHVO) kategoriyalari haqidagi ta'limoti, u bilan tarixan bog'liq bo'lgan tasavvuf bilish nazariyasi tashkil etadi.

Aniq lisoniy tahlil jarayonida tilni tavsiflash, unda sistemaviy munosabatlarni aniqlash usullaridan foydalaniladi. Sistema mohiyatini ochish, sistema, element, munosabat tushunchalarini sharhlash jarayonida qisman matematik modellashtirishdan ham foydalanildi.

Ishuning ilmiy yangiligi.

- lisoniy birlik serqirra, ko'p tomonli va murakkab bo'lganligi sababli uning mohiyati shu birlik u yoki bu shaklda, har xil majmualarda namoyon etadigan barcha belgilarni o'zida mujassamlashtirishi, mana shu sifatlar majmuasi asosida boshqa birliklar bilan xilma-xil aloqalarga kirishishi, shuning uchun uning mohiyati hamisha murakkab va serqirra bo'lishi alohida qayd qilindi;
- til tizimining sistemaviyligi va yaxlitligini ta'minlovchi asosiy omillari izohlandi;
- tilshunoslik fanining alohida bo'limi sifatida pragmatikaning shakllanishidagi nazariya o'zbek tilshunosligida birinchi marta fikr yuritildi;
- tilshunoslikning boshqa sohalari bilan pragmatikaning aloqasi aniqlandi;
- pragmalingvistika oldida to'rgan vazifalar sanab o'tildi.

Tadqiqotning nazariy va amaliy ahamiyati. Tadqiqotda til tizimining sistemaviyligi va yaxlitligini ta'minlovchi asosiy omillari izohlanishi, pragmatika

tilshunoslik fanining alohida bo`limi sifatida shakllanishining tarixiy ildizlarini aniqlash, lingvistik pragmatik birliklarni informema va pragmemalar sifatida tasniflash bayoni tilshunosligimizga qo`shilgan ma`lum bir hissadir. Ish materiallaridan "Umumiy tilshunoslik", "Tilshunoslik nazariyasi", "Lingvopragmatika asoslari", "Pragmatikaga kirish" kurslari bo`yicha qo`llanmalar yaratishda foydalanish mumkin.

Bundan tashvari, ish materiallari yosh filologlarga tilimizning boshqa (jumladan, g`arbiy Yevropa) tillaridan qurilish va qonuniyatlar jihatidan ancha farq qilinishini singdirib, ularning ongida milliy mafkurani mustahkamlashga ham xizmat qiladi.

Ishning tuzilishi: Ish kirish, ikki asosiy bob, xulosa, 35 nomdagi foydalanilgan ilmiy adabiyotlar ro`yxati, 64-bet (shundan 2 chizma)dan iborat. Ishning har bir bandi va bobi o`z xulosalariga ega.

I-BOB. O`ZBEK TILSHUNOSLIGIDA SISTEMAVIYLIK TAMOIYILI

1.1. Sistema tushunchasi haqida ma`lumot

Fizika va ximiya fanlari moddalarning zohiriy, taShui tavsifidan - atom va molekula bosqichidagi tavsifidan - ularning ichiga - yadroviy qurilishiga, nurning kvant va korpuskulyar to`zilishi bosqichiga o`tgach, sistema va uning qurilishi, elementlarning sistema ichidagi va undan taShuaridagi xossalari va mohiyati haqida tasavvurlar tamoman o`zgardi: e`tibor bevosita ko`zatishda moddiy shaklda berilgan organizm va uning tarkibiy qismlari kabi butunliklardan ko`z ilg`amas zarralarning o`zaro munosabatlar, aloqa va bog`lanishlar qonuniyatlariga ko`chirildi. Ma`lum bo`ldiki, ayni bir narsa ma`lum bir sistemaning elementi sifatida va shu sistemadan tashuarida tamoman boshqa-boshqa mohiyatga va xossalarga ega ekan. O`sha davrlarda (XX asrning boshlarida) fanda (va hatto falsafada) naturalistik yo`nalish juda kuchli edi . Shuning uchun sistemaning yangicha, nonaturalistik talqini tarafdorlari o`z misollarini biologik hodisalar asosida tushuntirishga va o`z fikrlarini asoslashga urinar edilar. Shunday misollardan biri "odam ko`zi" (aniqroqi "ko`z olmasi") bilan bog`liqdir. Bu a`zo odam uchun qanday ahamiyatga ekanligi hammaga ayon. Lekin yangi sistemologlar, "bu a`zo qachon va qaysi sharoitda mana shunday ahamiyatliq" degan jumbog`ni o`rtaga tashlashdi. Bu savolga javob o`z-o`zidan anglashilib turibdi: agar ko`z olmasi o`z o`rnida, odam (yoki boshqa bir tirik mavjudot) butunligi, sistemasida bo`lsa va u sistemada o`ziga xos o`rinni egallab to`rgan bo`lsagina ahamiyatga molik. Agar "ko`z olmasi" o`z o`rnida, o`z sistemasida bo`lmasa, u 50 gr. go`shtu po`st, xolos, hech qanday vazifani bajara olmaydi. Demak, xulosa qilishdi sistemologlar, "ko`z olmasi" o`z sistemasida, sistema ichida boshqa elementlar bilan o`zviy sistemaviy - ko`z ilg`amas - munosabatlarga kirishsagina, "ko`rish organi" vazifasini bajara oladi. Shu sistemadan taShuarida u "nochor" va, aytish mumkin, hech narsa. Shu asosda sistemada elementlararo munosabatlarning hal qiluvchi ahamiyati haqida qat`iy xulosalar chiqarila boshlandi.

Fizika va ximiya yadro ichiga va yorug'lik mohiyatiga chuqurlasha borgan sari sistema va sistemaviy qurilishning yangicha talqinlariga qiziqish orta bordi. XX asrning o'rtalarida maxsus fan - sistemologiya yoki sistema umumiy nazariyasi shakllandi va ommalashdi; barcha fanlarda naturalistik, komparativistik, qiyosiy-tarixiy o'rganishdan sistemaviy tahlil usullariga ko'chish sezila boshladi. Tilshunoslikda ham F.Bopp, P.Paul, A.Shleyxer, X.Vostokov kabi komparativistlar va yosh grammatikachilar asarlariga tayanib tadqiqot olib borish o'rnini dastlab F.de Sossyur, keyinchalik N.S.Trubetskoy, R.O.Yakobson, V.Skalichka, E.Sepiru, L.Blumfeld kabilarga havolalar egalladi. Sistemachilik bir rusumga, modaga aylandi: hamma sistemashunos bo'ldi. Lekin har kim sistemani o'zicha talqin qilar edi.

Sistema qanchalik rang-barang talqin qilinmasin, barcha sistemaviy ishlarda sistema uchun xos bo'lgan umumiy qonuniyatlar mavjuddir. Bular, asosan, quyidagilar:

1. Sistema murakkab butunlik bo'lib o'z rivojlanish va yashash qonuniyatlariga egadir.
2. Sistema murakkab butunlik bo'lganligi sababli u, albatta, tarkibiy qismlardan - elementlardan iborat bo'ladi.
3. Elementlar (shartli ravishda E) sistema (S) tarkibida o'zaro barqaror munosabatlar (shartli ravishda R) bilan o'zaro bog'langan bo'ladi.
4. Sistemada elementlar o'zgarmay, munosabatlar o'zgarsa, sistema bo'ziladi yoki yangi (oldingidan farqli) sistema vujudga keladi.

Yuqorida sanalgan xususiyatlar sistemaning mutlaq, qat'iy belgilaridir. Bulardan ta'shvari har bir sohadagi sistemaning (chunonchi lisoniy sistemaning) faqat o'zigagina xos bo'lgan juda ko'p belgi-xususiyatlari bo'ladi.


Shu bilan sistemashunoslar orasida birlik va yakdillik deyarli tugaydi. Chunki sistemaning turlari, undagi elementlar miqdori, elementlarning o'zaro aloqalari talqinida tadqiqotchilar orasida xilma-xilliklar juda ko'p. Jumladan, struktura tushunchasi haqida ham. Struktura hamisha sistema bilan birga qo'llaniladi, ayrim hollarda u sistema bilan, ba'zan esa sistema ichida

elementlarning joylashish tartibi va o'zaro munosabatlari bilan tenglashtiriladi. Nazarimizda, strukturani shunday tushungan ma'qul. Chunki bunday tushunish matematika tomondan ham isbotlanadi.


Sistema, uning elementlari va munosabatlari orasidagi bog'laniShuni bilish va tushunish uchun biz juda sodda sistema tanlab, unda elementlar va munosabatlarni o'zgartirib ko'ramiz. Bu amaliyot sistemada element, uning turli shakllari, munosabatlarning o'rni qanday ekanligini bizga yorqin ko'rsatadi. Bu amaliyotlar uchun biz juda sodda, ko'zga yaqqol tashlanib turadigan sistema - 4 ta gugurt cho'pidan yasalgan ochiq burchakli uchburchakni (1-chizma) va kvadratni (2-chizma) olamiz.

1-chizma

Ochiq burchakli uchburchak



2-chizma



Ikkala chizmadagi tasvir moddiy jihatdan (gugurt cho'pligi yoki to'g'ri chizig' ekanligi bilan) bir xildir. Farq nimadaq Buning uchun kvadrat gugurt cho'plaridan (elementlardan) qanday hosil qilinganligini ko'rib o'tamiz. Kvadrat quyidagi m u n o s a b a t larning mahsulidir:

E (elementlar) - 4 ta gugurt cho'pi.

R (munosabatlar) - tomon - gugurt cho`plarning bir biriga tengligi, qarama-qarshi tomonlarning o`zaro parallelligi va kesishadigan tomonlarning o`zaro perpendikulyarligi. Bunday elementlar majmuasi va munosabati kvadratni beradi. (2.2-chizma).

Sistema elementlari orasidagi munosabat qisman bo`zilsa ham oldingi sistema bo`zilishi va yangi sistema hosil bo`lishini ko`rsatib turibdi. haqiqatan ham, og`ayni qo`shma so`zi bilan uning kelib chiqish manbai bo`lgan og`a-ini juft yasama so`zi orasida faqat genetik, tarixiy, kelib chiqish aloqalari bor. Bulardan har biri boshqa-boshqa sistemalarning - biri juft yasama so`zlarning, ikkinchisi - leksikalizatsiya hodisasiga uchragan qo`shma so`zlarning birliklaridir.

Lisoniy sistema ongda, tafakkurda mavjud, uni ochish qiyin, ko`rsatish esa umuman mumkin emas. Mana shuning uchun biz sistema mohiyati, unda elementlar, ularning moddiyliklari va o`zaro munosabatlarini ko`rish va ko`rsatish maqsadida geometrik figuralar ustida tilimizning lisoniy tizimida sodir bo`ladigan hodisalarga o`xshash ishlarni bajardik, elementlarda va ularning o`zaro munosabatlarida ro`y beradigan o`zgarishlar sistemaga qanday ta`sir etishini ko`rdik va ko`rsatdik, bunday o`zgarishlarning natijalari haqida shubhasiz xulosalarga keldik; bu umumiy xulosamiz sistemologlar chiqaradigan hukm bilan aynan: sistema mohiyatini elementlar orasidagi munosabatlar belgilaydi. Munosabatlar saqlanib, elementlarning o`zining o`zgarishi sistema mohiyatiga ta`sir etmaydi.

1.2. O`zbek tilshunosligida formal va formal-funksional yo`nalish

O`zbek tilshunosligida rivojlanib borayotgan yangi ilmiy talqin yo`nalishlari va ularning asosiy atamalar tizimi izohlanadi. Milliy istiqlol sharofati bilan nafaqat O`zbek xalqi, balki O`zbek tilshunosligi ham bugun har qanday "markaziy bo`yinturuqlar" va ko`rsatmalar bandidan ozod bo`ldi va erkin rivojlanmoqda. Keyingi 10-15 yil ichida tilshunosligimizda 3-4 mustaqil ilmiy tahlil yo`nalishlari shakllandi va ulardan har biri o`zini sistemaviy va o`zgalarni, ko`pincha, nosistem deb baholaydi. Bu qanchalik to`g`ri va asoslanganq

Bu yo`nalishlarda ayni bir hodisani nomlash uchun xilma-xil atamalar qo`llanilib kelmoqda. Shulardan qaysi biri, bizningcha, to`g`ri va asosliq Ilmiy ishlarning muhokama va mutolaasi vaqtida atamalar xilma-xilligi juda ko`p hollarda bahsu munozaralarga sabab bo`ladi. Shuning uchun biz dastlab shu masalalalar ustida to`xtalamiz.

Keyingi vaqtlarda O`zbek tilshunosligi bo`yicha ilmiy tadqiqotlarda, xususan, struktural izlanishlarda sistem (yoki sistemaviy, sistem-struktur, zamonaviy v.h.) tilshunoslik atamasi keng qo`laniladi va ko`p hollarda an`anaviy deb nomlanuvchi asoschilari, qisman, Abdurauf Fitrat, asosan, professor Ayub G`ulomov bo`lgan lingvistik talqinlarga qarama-qarshi qo`yiladi . Ba`zan ish shu darajagacha boradiki, an`anaviy tilshunoslik ilmiy emas, faqat tavsifiydir va ilmiy deb sistem tilshunoslikkina baholanishi mumkin . Dastlab, an`anaviy (ya`ni asoschisi Ayub G`ulomov bo`lgan) va sistemaviy tilshunoslikning mohiyati nimadaq

Professor A.G `ulomov, bu olimning yaqin (A.Borovkov, N.Dmitriev) va o`zoq (A.A.Shaxmatov, A.M.Peshkovskiy, V.V.Vinogradov v.b.) salaflari hech qachon tilning sistemaviy tabiatini inkor etmaydilar; barchalari - hatto Arastu ham so`z turkumlari va so`z shakllarini ajratar va tavsiflar ekan, tilning sistemaviyligini tan olgan deb sanalishi mumkin. Zeroki, istagan turdagi shakllar yoki guruhlar sirasi (hozirgi ilmiy atamalar bilan aytganda - paradigmalar) ajratilar ekan, sistemaviylik bunday tadqiqotlarda o`z aksini topgan bo`ladi; tilning ichki, ontologik qurilish tabiati sistemaviy bo`lgach, u qanday usul bilan tavsiflanmasa tavsifda bu sistemaviylik o`z aksini u yoki bu darajada topgan bo`ladi: qozondagi cho`michga chiqadi. Shuning uchun K.Ostgof, X.Brugman, Ya.Grimm, X.Vostokov, A.Shaxmatov, A. Peshkovskiy, V.Vinogradov, P.Melioranskiy, V.Radlov, N.Dmitriev, A.Kononov, A.G`ulomov kabi tilshunosik fidoyilarining tadqiqotlarini nosistem deb atash ham ilmga, ham ilmiy tadqiqotlar va bu fidoyilarga noto`g`ri baho berishdan o`zga narsa emas. har ikkala tilshunoslik - an`anaviy ham, hozirgi sistem-struktur ham tilni sistema deb tan oladi, lekin sistemaviylikni har biri o`zicha tushunadi. Tadqiq manbaning (jumladan,tilning)

serqirraligini tan olgan har bir olim bunday xilma-xillikni to'g'ri tushunadi va haqqoniy baholay oladi. Barcha ilmiy atamalar kabi "sistema" atamasining ham mazmuni davr bilan bog'liq ravishda o'zgarib, boyib, chuqurlashib boradi. Bu fan uchun tabiiy holdir. Chunonchi, genitivus - qaratqich kelishigi atamasi qariyb 3000 yildan beri fanda ishlatilib kelinmoqda. Lekin Iskandariya maktabi namoyandalari tadqiqotlarida berilgan genitivus mohiyati bilan, masalalan, A.V.Isachenko yoki R.O.Yakobson ishlarida berilgan qaratqich kelishigi tavsifini qiyoslab bo'lmaydi. Xuddi shunday, yer atamasi bir necha ming yillardan beri qo'llanilmoqda. Lekin hozirgi IV sinf o'quvchisining yer haqidagi bilimlari Muallimi avval va Muallimi soniylarnikidan aniqroq, chuqurroq va haqiqatga yaqinroq desak, mubolag'a bo'lmasa kerak: IV sinf bolasi, hech bo'lmasa, geliotsentrizm nazariyasi bilan tanish.

Sistema atamasi bilan ham xuddi shunday voqea sodir bo'ldi. XIX asrning oxiri - XX asrning boshlaridagi sistema mazmuni bilan XX asrning o'rta va oxirlaridagi sistema atamasining mazmuni bir-biriga mos kelmaydi. Chunki XIX asrda tilshunoslikda sistema biologiya fanida uning tushunilishi asosida talqin etilgan bo'lsa, XX asrda sistema mazmuni yadro fizikasi yutuqlari asosida yangilandi, chuqurlashtirildi. Oldin bizga butunlik sifatida bevosita ko'zatishda berilgan har bir narsa sistema deb qaralgan bo'lsa, endi har bir voqelikda ikki tomon:

a) ichki, ko'zga tashlanmas (bevosita ko'zatishda berilmagan) tomon-butunlikning tarkibiy qismlari orasidagi barqaror munosabatlar chizmasi,

b) shu munosabatlar chizmasining muayyan moddiy shaklda voqelanishi va ko'zatishda berilishi (munosabatlarning voqelanishi) izchil farqlana boshladi. Shu tomonlardan atigi biriga nisbatan - munosabatlar chizmasiga nisbatan sistema (va struktura) atamasi qo'llaniladigan bo'ldi. Tilshunoslikda dastlab V.Gumboldt ergon (ergon -yashiringan, ko'zga yaqqol tashlanmaydigan imkoniyat) va energiya (energia- mazkur imkoniyatning moddiy voqelanishi), sal keyinroq I.A.Boduen de Kurtene fonema va tovush tushunchalarini farqlab, sistemaning yangicha tushunilishini til tadqiqiga tatbiq etishga urindilar. Lekin Gumboldt taxmini ancha

yo`zaki, Boduen ta`limoti esa tarqoq va kam ommalashganligi sababli yoyilmadi va zamonaviy sistemaviy tilshunoslik asoschisi sifatida Sossyur ta`limoti tan olindi. Sossyur Gumboldtning ergon tushunchasiga mos keladigan holatlarni lisoniy lingvistikaga, energiya tushunchasiga muvofiq holatlarni nutq lingvistikasiga ajratib, nutq faoliyati jarayonida ikki hodisani - lison va nutqni farqladi.

Bu yerda lison atamasi ustida bir muncha to`xtalish lozim. Chunki hozir ham shu ma`no va vazifada til atamasi juda keng ishlatiladi. Sossyur langue va parole atamalarini farqladi. Franso`zcha langue rus tiliga yazik sifatida tarjima qilindi va rus tilidan O`zbekchaga til atamasi bilan berildi. Lekin O`zbek tilida til so`zi ko`p ma`nolidir va kishining ongida imkoniyat sifatida yashiringan qobiliyatni ham (tilni bilmaydi), bu imkoniyatning bevosita ko`zatishda berilgan voqelanishini ham (Oybek asarlarining tili ravon.) atab kelaveradi. Shuning uchun sistemaviy tilshunoslikning o`ziga xos tushunchasini ifodalaydigan, so`zlash qobiliyati va vositalari majmuasini atab keladigan lisonni uning voqelanishi bo`lgan moddiy nutqdan farqlash lozim. Mumtoz adabiyotimizda ham lison so`zi shunga yaqin ma`noda qo`llanilgan (qar. "Lisonut tayr", "Mantiqut tayr").

Zamonaviy sistem tilshunoslikning asosini mana shu ikki tushuncha - lison va nutq hodisalarini izchil farqlash tashkil etadi. To`g`ri, Sossyur o`zi ajratgan lison tushunchasini aniq farqlab va chegaralab bermagan edi. Shu bois uning ta`limoti bilan o`zviy bog`liq bo`lgan tilshunoslik maktab va oqimlarida (funktsional lingvistika, glossematika, deskriptiv lingvistika, London lingvistik maktabi talqinlarida) lison va nutqning tushunilishi bir biridan tubdan farq qiladi, lekin ular ikki hodisani - lison va nutqni farqlash va bir biriga qiyoslash bilan umumiydir.

Sistemaviy va an`anaviy deb nomlanadigan tilshunoslik orasidagi farq ham ana shunda. An`anaviy tilshunoslik sistema va uning voqelanishini (imkoniyat va uning voqelanishini) birga oladi, lisoniy va nutqiy lingvistikani bir biridan ajratmaydi. Sistemaviy tilshunoslik esa bu ikki hodisani bir biridan farqlab o`rganadi. Shuning uchun bu olimning tadqiqoti nosistem, mana buniki esa

sistemaviy deb keskin ajratish mumkin emas. Bunday ishlarga nisbatan buning tadqiqotida imkoniyat va uning voqelanishi birga berilgan, mana bu ishda esa bu tomonlar alohida-alohida tahlil etilgan deb ko'rsatgan ma'qul. SHuning uchun tilshunoslikda muayyan bir tilning hodisalari tavsifiga baqishlab yozilgan har bir ishda lisoniy sistemaviylik o'z aksini topgan bo'ladi, lekin ko'p hollarda tadqiqotchi sistema deganda nimani tushunishini o'zi chuqur anglab etmaydi va ongsiz, intuitiv ravishda - ko'p hollarda rus yoki g'arb tilshunosligida yaratilgan bir tadqiqotga ergashib - til hodisalari tavsifini beradi, o'z oldiga sistema nimah degan masalalani hal qiliShuni va o'zi anglab etgan sistemaga amal qilib tavsif olib boriShuni ko'zlamaydi. Buning sababi tilshunoslarning sistemaning umumiy nazariyasi bilan chuqur tanish bo'lmaganliklaridadir. Shuning uchun bu haqida biroz to'xtalamiz.

Lison va nutqni farqlaShuni ilk marotaba V.Gumboldt va I.Boduenlar ilgari surib, fanda uning ommalashishining sababchisi F.Sossyur bo'lganidek, "sistema umumiy nazariyasi" g'oyasini asoslagan olim va bu nazariyasining asoschisi deb jahon tan olgan shaxs boshqa-boshqadir.

Sistema umumiy nazariyasi dastlab rus olimi A.Bogdanov tomonidan XX asrning boshlarida tektologiya atamasi ostida shakllantirildi va shu nomli tadqiqot 1913 yilda e'lon qilindi. Bu tadqiqotda keyinchalik (1936 yilda) Lyudvig fon Bertalanfi kashfiyoti sifatida butun olam tan olgan "Umumiy sistema nazariyasi" asoslari ishlab chiqilgan edi. L.Bertalanfining tadqiqoti bir necha tillarga tarjima qilinib, tez ommalashdi. Lekin A.Bogdanovning tadqiqoti noma'lumligicha qolib ketdi.

O'zbek tilshunosligining XX asrning 40-90-yillarda rivojlanish xususiyatlarini baholab ayta olamizki, tilshunosligimizning 40-70- va 80-90-yillardagi holatini birini sistemaviy, boshqasini nosistem deb baholash asossizdir; tilning sistemaviy tabiati an'anaviy tavsiflarda ham, zamonaviy, sistemaviy tavsiflarda ham o'z aksini topgan. Lekin XX boshlaridagi sistema haqidagi ilmiy tushuncha bilan XX asrning o'rtalaridagi ilmiy tushuncha bir xil emas. XIX asr oxiri - XX asr boshlari sistemaviylik tamal toshlari (me'yorlari) bilan XX asr

o`rtalari me`yorlari bir biriga to`g`ri kelmaydi. Mana shuning uchun "an`anaviy" va "zamonaviy" tilshunosliklar orasida farq paydo bo`ladi. Bu farq tadqiq manbaining o`zi bilan emas, balki tadqiqotchining dunyoqarashi va tamal toshlari bilan bog`liqdir. Tadqiq manbaining sistemaviyligi, uning butunligi, o`zaro bog`lanishlari an`anaviy tilshunoslikda ham, zamonaviy tilshunoslikda ham o`z aksini topadi. Faqat 30-70-yillarda tilshunos va tilshunoslik oldida to`rgan maqsadlar va sistema tushunchasi bilan ularning oldida 70-90-yillarda to`rgan maqsad, vazifa va tamal toshlari har xil. "Zamonaviy tilshunos"ligimiz "an`anaviy" fanimizning bevosita, zaruriy davomidir. Lekin ayni bir narsa (masalalan, egalik kategoriyasi) bu tilshunosliklarda turli jihatlardan o`rganiladi, xolos. Mana shu tadqiq manbaining o`zida bo`lgan zohiriy va botiniy (taShui va ichki) jihatlar bu tilshunosliklarni xilma-xil qiladi. Shuning uchun bu tilshunosliklarni - til va fanning har bir narsani o`z nomi bilan atashga intilishi sababli - turlicha nomlash zarur. Bunda "an`anaviy" (ya`ni eski, qoloq, o`tmish v.h.) va "zamonaviy (ya`ni yangi, dolzarb, zarur v.h.) kabi baholovchi epitetlar (aniqlovchilar) o`ta noqulaydir. Lekin turlicha nomlash zarur. Shuning uchun fanimizda amaliyotda bo`lgan bu yo`nalishlarni qanday nomlar bilan atash ma`qulligi ustida to`xtalamiz.

Sossyur ta`limoti bilan bog`liq bo`lgan struktural yo`nalish bizda 70-yillardan keyin, asosan, Praga strukturalizmi - funktsional lingvistika orqali kirib kelganligini hisobga olsak, yangi yo`nalishimizni funktsional tilshunoslik, XX asrning yigirmanchi-qiriqinchi yillarida shakllanib, 60-yillarda taraqqiyotining yuqori cho`qqisiga ko`tarilgan tilshunosligimizni (asoschilari Abdurauf Fitrat-Ayub G`ulomov bo`lgan tilshunosligimizni) formal deb nomlashimiz ma`quldek ko`rinadi, zeroki, XIX asrning o`rtalarida rivojlangan va keyingi buyuk namoyandalari A.Shaxmatov, A.Peshkovskiy, V.Vinogradov, metodist-didakt S.Barxudarov, turkiyshunoslarlar A.Samoylovich, A.Potseluevskiy, N..Dmitriev, A..Borovkov, A.Kononov kabilar bo`lgan Moskva lingvistik maktabi tilshunoslik tarixida formal yo`nalish nomi bilan mashhurdir. Formal yo`nalishda O`zbek tilining mukammal va to`la tavsifi bevosita Ayub G`ulomov nomi bilan bog`liqdir, chunki ustoz shu maktabning turkiyshunoslikda ko`zga ko`ringan vakili

N.K.Dmitrievning shogirdi va maslakdoshi edilar. Shu yo`nalishdagi ilk tavsif grammatika shaklida 40-yillarda yaratildi va deyarli hozirgacha u yoki bu jo`z`iy o`zgartirishlar bilan ta`lim o`choqlarida o`qitilmoqda. O`z darsliklarining ilmiy va madaniy ahamiyati haqida A.G`ulomovning o`zlari shunday yozgan edilar: "1938- yilda S.G.Barxudarovning rus O`rta maktablari uchun Учебник русского языка» kitobi me`yoriy barqaror (stabil) darslik sifatida ommalashgach, shu asosda O`zbek maktablari uchun ham darsliklar yaratildi (A.K.Borovkov, A.G`ulomov, Z.Ma`rupov, T.Shermuhammedov, O`zbek tili grammatikasi I-II qismlar...)... bu darsliklar O`zbek adabiy tili me`yorlarini belgilash va ommalashtirishda muqim ahamiyat kashf etdi". Ushbu darsliklar vositasida formal yo`nalish O`zbek tilshunosligida juda tez o`rnashdi va ommalashdi. Buning bir necha sabablari bor edi. Bir tomondan, bu A.Borovkov, A G`ulomov kabi olimlarning fidokorona mehnatlari bilan bog`liq bo`lsa, ikkinchi tomondan sovet zo`ravonligi va qatag`onlari bilan bog`liqdir. Chunki 20-30-yillarda I.Boduen de Kurtenening ma`naviy shogirdi bo`lgan E.D.Polivanov ham, Turkiya va g`arbda ta`lim olgan Abdurauf Fitrat ham, tayyorgarliklari ancha pishiq bo`lgan Qayum Ramazon, Shavkat Zunnun, Ne`mat Hakim kabi tilshunoslar O`zbekistonda edilar. Ularning 1925-30-yillar davomida respublikamizda amalda bo`lgan darsliklaridagi grammatik tizim Moskva lingvistik maktabi talqinlaridan ancha farq qilar edi. Lekin 30-40-yillar Qatag`onida bu tilshunoslar oddiygina yo`q qilindi va O`zbek bolalari rus tili darsliklari namunasida yozilgan ona tili darsliklari asosida ta`lim olishga majbur bo`ldilar.

Bundan tashuari, 30-yillarda fanlar sovet to`zumi uchun yot, zararli bo`lgan "burjua fanlari" va "marksistik fanlar"ga ajratildi. Genetika, pedagogika, kibernetika kabi fanlar bilan bir qatorda strukturalizm (jumladan asoschilaridan biri bo`lgan I.Boduen de Kurtene ta`limoti bilan aloqador bo`lgan funktsional lingvistika) ham "burjua fanlari" sirasiga kiritildi, uning tarafdorlari oddiygina yo`q qilindi. O`zbek tilshunosligi rus rasmiy tilshunosligidan zarracha ham chetga chiqa olmas, o`z tadqiq manbai - O`zbek tili hodisalarini O`zbekona baqolay olmas edi.

60-yillarning oxirlarida fanlarning "marksistcha tasnifi" bekor qilingach, funktsional lingvistika g'oyalari O'zbek tili bo'yicha tadqiqotlarga kirib kela boshladi. Fanimizda funktsional lingvistik tadqiqotlarning kirib kelishi va ommalashishi S.G'iyosovning nomzodlik dissertatsiyasining I bobida maxsus tadqiq va tavsif etilganligi sababli biz bu masalala ustida to'xtalmaymiz. Fanimizda 60-yillardan keyingi bu yo'nalishdagi o'zgarishlar N.M.Mahmudov va A.Nurmonovlarning doktorlik dissertatsiyalari, mazmuniy sintaksis va nazariy grammatika, o'zbek tilshunosligi tarixi bo'yicha o'quv qo'llanmalarida umumlashtirilgan. Bu sohada, ayniqsa, M.Qurbonovanning doktorlik dissertatsiyasidagi I va II boblar diqqatga sazovordir. Chunki olimi ishining bu boblarida O'zbek tilshunosligida formal-funktsional yo'naliShuning shakllanish va rivojlanish bosqichlarini maxsus tahlil qiladi. 100 dan ortiq ilmiy ishlar tahlilidan keyin olimi 90-yillarga kelib O'zbek tilshunosligida o'ziga xos yo'nalish - formal-funktsional yo'nalish shakllanganligi haqida qat'iy xulosa chiqaradi. M.Qurbonovanning alohida xizmati sifatida shuni ko'rsatish joizki, u O'zbek funktsional lingvistikasining Praga strukturalizmidan tub farqlarini ochib beradi. Bu farq shundan iboratki, O'zbek formal-funktsional tilshunosligida Praga funktsional lingvistikasining lisoniy va nutqiy birliklarning tabiati haqida ta'limoti to'la saqlangan bo'lsa-da, ular dialektik falsafaning zotiylik (substantsiallik) omili va umumiylik, mohiyat, imkoniyat, sabab (qisq.: UMIS) va alohidalik, hodisa, voqelik, oqibat (qisq. AHVO) kategoriyalari mazmuni bilan to'ldiriladi. Boshqacha qilib aytganda, lison va lisoniy birliklar UMIS sifatida, nutq va uning birliklari esa AHVO xususiyatlari nuqtai nazaridan talqin qilinadi. Boshqacha qilib aytganda, tilshunoslikning asosiy tushunchalari dialektik mazmun bilan to'ldiriladi va dialektik kategoriyalarga mos ravishda talqin etiladi. Bu milliy istiqlolning ma'naviy farzandlaridan biri bo'lgan O'zbek milliy tilshunosligining jahon tilshunoslik faniga qo'shgan qissasi sifatida baholanishi lozim.

Lison va lisoniy birliklarga bunday - falsafiy nuqtai nazardan yondashish nima beradiq Ma'lumki, falsafiy kategoriyalar ming-ming yillardan beri Sharq va g'arb faylasuflari tomonidan juda chuqur va o'nlab aniq, tabiiy va ijtimoiy fanlar

yutuqlari asosida tadqiq va tahlil etilgan va etilmoqda. Shuning uchun ularda inson tafakkurining javhari mujassamlanadi. Biz miqdoriy O'zgarishlarning sifat O'zgarishlariga O'tishi, narsaning serqirraligi va unda qarama-qarshi tomonlarning mujassamlanishi, falsafiy umumiylik - xususiylik, mohiyat - hodisa, imkoniyat - voqelik, sabab - oqibat kategoriyalari xususiyatlarini bilsak, tadqiq manbaimizda ularning voqelanish xususiyatlarini anglay olsak, falsafa bizga UMIS yoki AHVO sifatida ajratgan birligimizda nimalarni ko'ra olishimizni, ularda nimalarni izlashimizni ko'rsatib turadi - u yo'lchi mayoqsingari bizga yo'l ko'rsatadi. Bu jarayonda sun'iylik, (ya'ni UMIS xususiyatlarini AHVOga yoki, aksincha nisbat berish) va xato bo'lishi mumkinmiq Agar biz o'z tadqiq manbaimizda AHVO va UMISga nisbatan berayotgan hodisalarimizda adashmagan bo'lsak, xato bo'lishi mumkin emas. Chunki falsafiy kategoriyalar shunchalik chuqur va aniq ishlanganki, ularga o'sha kategoriyaning mohiyatiga mos kelmaydigan narsa hodisani nisbat bersak, ular qabul qilmaydi. Masalalan, umumiylik-xususiylik kategoriyalarini olib ko'raylik. Falsafa dialektik umumiylik quyidagi xususiyatlarga ega bo'lishi kerakligini o'rgatadi :

- a) u bevosita ko'zatishda berilmagan idrokiy, aqliy, fikriy bo'lmog'i lozim,
- b) u muayyan zamon va makondan xoli bo'lmog'i lozim,
- v) u moddiylikdan xoli bo'lmog'i lozim,
- g) u muayyan shakldan xoli bo'lmog'i lozim,
- d) umumiylik muayyan shakl, zamon, makon va moddiylikdan xoli bo'lgan holda unda shakl, moddiylik, makon va zamon haqida tasavvur (va munosabat) bolmog'i zarur,
- e) u jamiyatning barcha a'zolariga tushunarli, tayyor va majburiy (umumiy) bo'lishi lozim,
- j) u xususiylik shaklida cheksiz ko'rinishlarda voqelana olishi, muayyan shakl, moddiylik, makon va zamonga ega bo'la olishi kerak,
- z) umumiyliklarning mohiyati o'ziga o'xshagan umumiyliklar bilan munosabatlari asosida ochilishi kerak,

i) umumiylikda uning ontologik (zotiy) xususiyatlari mujassamlangan bo`ladi, u hech qachon barcha xususiyatlarini birdaniga yo`zaga chiqara olmaydi, lekin xususiyliklarda bo`lgan (shu umumiylikka aloqador) xususiyatlar umumiylikdan taShuarida, unga begona ham emas; ya`ni "Sifat zoti emas, na g`ayri zoti" - xususiyliklarda voqlanuvchi sifatlar umumiylik uchun begona ham emas, lekin u shu sifatlardangina iborat ham emas; uning yana ko`p (umuman cheksiz) belgi-xususiyatlari bo`lishi mumkin.

Strukktural tilshunoslikning muhim masalalaridan biri - lisoniy birlik va nutq birligi, ularning belgi-xususiyatlari orasidagi farqlar muammosini o`rta qo`yadi. Odatda, lisoniy birliklar sifatida fonemalar, morfemalar, leksemalar, lisoniy qoliplar ajratiladi. nutq birliklari sifatida esa harf, tovush, bo`g`in, so`z, so`z birikmalari, gaplarni ko`rsatadilar .

Fanimiz ham shu vazifaga xizmat qildi: tilimiz sistemasini (ya`ni umumiyliklarni) uning voqelanishi bilan birgalikdagi tavsifini berdi. Bunda tadqiq manbaining taShui, shakliy tomoni tadqiqotni birlashtiruvchi,uning butunligini ta`minovchi omil vazifasini o`tadi. Shuning uchun bu yo`nalish formal yo`nalish deb nomlanishi mumkin.

Funktsional yo`nalishdagi izlanishlarda tadqiqotchilar o`z yo`nalishlarini formal-funktsional yoki zotiy tahlil deb qo`shaloq nomlar bilan ataydilar. Shunday atamadan R.Sayfullaeva, M.Qurbonova, B.Yorov, L.Raupova v.b. keng foydalanadilar. Formal-funktsional atamasidan bu yo`nalishga asos bo`lgan "Formal-funktsional tadqiq tezlari"ning mualliflari ham foydalanadilar . Shu tezlarda, shuningdek S.Ivanov, H.Ne`matovlarning boshqa ishlarida substantzial tadqiq atamasi ham qo`llaniladi. Nazarimizda, bunday xilma-xillik fanda noqulaylik tug`diradi, keraksiz munozaraga sabab bo`ladi. Shuning uchun A.G`ulomov maktabi tilshunosligiga nisbatan formal tilshunoslik, bugun rivojlanayotgan va ta`lim tizimiga kirib borayotgan yo`nalish uchun formal-funktsional tilshunoslik atamalarini Qo`llash ma`qul.

Bu yo`nalishlarni shunday atamalar bilan nomlaShuning yana bir necha ilmiy-an`anaviy (me`yoriy) asoslari mavjud. Jumladan:

1.Prof.A.G`ulomov maktabi tilshunosligini formal tilshunoslik deb atash ma`qulligining asosiy sababi, yuqorida aytib o`tganimizdek, ustoz va u kishining ustozlari Nikolay Dmitriev Moskva lingvistik maktabining namoyandalaridir. Bu tilshunoslik maktabi esa Sharq g`arbda tilshunoslikda formal yo`nalish (formalnoy napraleniy v yazukoznaniy ) sifatida mashhurdir Ayub G`ulomov ham, Aleksandr Borovkov ham shu maktab vakillari bulganliklari sababli fanimizdagi bu yo`naliShuni ham jahon tan olgan atama bilan berish ma`qul. Lekin formal yo`nalish birikmasidagi formal so`zini faqat forma,shaklga e`tibor berib, mazmun va vazifaga mutlaqo e`tibor bermaslik deb tushunmaslik kerak. Moskva lingvistik maktabining tilshunoslikda formal yo`nalish deb atalishiga sabab shuki, lisoniy va nutqiy hodisalarni keskin ajratmaydigan bu tahlil yo`nalishi tadqiq va tahlilning ilk bosqichida falsafiy mohiyatga ega bo`lgan shakl (forma), ya`ni tadqiq manbaining taShui, moddiy, shakliy tomoniga tayanib,undan shaklning mazmun va vazifasi tahliliga o`tadi. Shuning uchun ham bu tilshunoslik maktabi jahonda uch teng qiymatli atama ostida mashhurdir :

- a) Moskovskaya lingvisticheskaya shkola,
- b) Fortunatovskaya lingvisticheskaya shkola,
- v) Formalnaya lingvisticheskaya shkola.

Keyingi vaqtda shu yo`nalishga nisbatan "Viogradov lingvistik maktabi" atamasi qo`llanilmoqda.

"Bu maktabning formal deb atalishiga sabab shuki, - deb yozadi V.K.Juravlev, - unda yosh grammatikachilarning ruhiy (psixologik) tamoyillariga zid o`laroq tadqiq muayyan shaklga ega bo`lgan sof lisoniy hodisalarga tayangan holda amalga oshiriladi" . Shuning uchun formal yo`nalish birikmasidagi formal so`zini jahon tilshunosligida qabul qilingan, me`yorlashgan ma`noda tushunish lozim. Bugungi O`zbek tilshunosligi jahon tilshunosligining tarkibiy qismi bo`lganligi sababli jahonda qabul qilingan atamadan foydalangani ma`qul ko`rinadi. "O`zbek tilshunosligida formal yo`nalish". "O`zbek formal tilshunosligi" kabi atamalar fanimizdagi bir yo`naliShuning jahon tilshunosligining qaysi

tarmoqiga mansubligini.uning asosiy tahlil usullari va tamoyillari,maqsadi nimadan iborat ekanligini ko`rsatib turadi.

Formal yo`nalish fanimizda eng rivojlangan,keng ommalashgan va tarmoqlangan tahlil usuli bo`lib,u tilimizning barcha sath birliklarini o`rganish jarayonida ommaviy amaliyotdadir. Uning (fonetika, leksikolgiya, grammatikadan taShuari) yaxshi rivojlangan lug`atchilik, atamashunoslik, shevashunoslik, til tarixi, uslubshunoslik, miqdoriy (statistik) tilshunoslik, she`riyat tilshunosligi (lingvopoetika),chog`ishtirma tipologiya kabi o`nlab tarmoqlari mavjuddir.

2. Fanimizda asoschisi S.Ivanov va uning izdshlari bo`lgan yo`naliShuni formal-funksional deb atalashiga ham ma`lum asoslar bor. Bular, jumladan, quyidagilar:

Birinchidan.bu yo`nalish oldingi (formal) yo`naliShuning bevosita davomi,uning tahlil va tavsif materiallariga tayanib tadqiqotlarni davom ettiruvchi tahlil usulidir. Formal-funksional atamasi tarkibidagi birinchi qism mana shunga ishora qiladi. Lekin formal-funksional yo`nalishda bosh maqsadi sistemalashtirish emas, balki sistemani ochish, uni tavsiflash, munosabatlarni sharhlashdir. Shu jihat bilan bu yo`nalish lison va nutq hodisalarini izchil farqlovchi Praga strukturalizmi, funksional lingvistika bilan yaqinlashadi,lekin lisoniy hodisalarga dialektikaning umumiylik, mohiyat, imkoniyat, sabab (UMIS) nutqiy hodisalarga esa yakkaalik, hodisa, voqelik, oqibat (AHVO) kategoriyalari me`yorlari bilan yondashishi,ya`ni onglilik, izchillik bilan tatbiq etiladigan dialektik metodologik tamoyillarga egaligi bilan undan farq qiladi. Shuning uchun O`zbek fanidagi bu yo`naliShuni soddagina funksional yo`nalish deb bo`lmaydi.

Demak, bugungi O`zbek tilshunosligida shaxdam qadamlar bilan uch yo`nalish rivojlanmoqda:

- 1) formal tahlil yo`nalishi,
- 2) fomal-funksional tahlil yo`nalishi,
- 3) semantik sintaktik tahlil yo`nalishi.

har uchala yo`nalish ham sistemaviy, ya`ni tilni sistema deb qabul qiladi. Lekin har bir yo`nalish bu sistemani o`zicha tushunadi va tayanch birliklari o`ziga xosdir.

hech qachon bu yo`nalish to`g`ri, mana bunisi esa noto`g`ri deb aytish mumkin emas; har bir yo`nalish tilga, ya`ni til tizimiyligiga, sistemaviyligiga turli tomondan yondashadi va ma`lum bir qirrasini ochishga, tavsiflashga xizmat qiladi.

II-BOB. STRUKTURAL TILSHUNOSLIKDAN PRAGMALINGVISTIKAGA

2.1. Pragmatik yo`naliShuning shakllanishi

Har qanday fan sohasining shakllanishi va rivoji ushbu soha obyektiga nisbatan qiziqish paydo bo`lishdan boshlanadi. Qiziqishdan esa savollar tug`iladi. Tilshunoslik ham bundan mustasno emas. Ushbu fanning yo`zaga kelishi va taraqqiyoti bevosita til tizimi, lisoniy birliklarning qurilishi, tarkib topishi va ulardan kundalik hayotda, ijtimoiy faoliyatda foydalanishga oid savollarga javob izlashdan boshqa narsa emas. Ammo tilshunoslikda ham xuddi boshqa fanlarda bo`lganidek, savollar tanlovi ilmiy maqsadga yo`naltirilgan bo`lishi, ularga topiladigan javoblar haqiqatga mos kelishi muhim shartdir. Aks holda, qo`yilgan savolga javob topish imkoni butunlay bo`lmasa yoki savol o`ta mavhum to`zilsa, bunday mashg`ulot quruq fikrdan, "oldi-qochdi" gaplardan iborat savol-javob o`yiniga aylanib qolish xavfidan holi emas. Albatta, bu xavfdan saqlanish, "quruq gap" - spekulativ falsafadan qochish oson emas. Birgina misol, tilshunoslar, faylasuflar, teologlar va boshqalar 2000 yildan ortiq vaqt davomida eng etuk, voqelikni to`liq va aniq aks ettiruvchi, lug`aviy va grammatik tizim jihatidan hech qanday kamchiliksiz, yozma va og`zaki muloqotda qo`llanish uchun qulay bo`lgan tilni topish ishtiyoqidalar. O`rta asrlarda bunday etuk til o`z paytida mavjud bo`lganligi va agarda Bog`i Eramdagi muloqot vositasi qayta tiklansa, insoniyat voqelikni haqqoniy idrok va ifoda eta olish qobiliyatiga ega bo`lishi, insonlar, millatlar o`rtasidagi har qanday anglashilmovchiliklar, ziddiyatlar osonlik bilan bartaraf etilish haqidagi fikr hukmron edi. Biz ham "yetuk til" muammosi muhokamasini butunlay samarasiz mashg`ulot deyishdan yiroqmiz. Zero, birinchidan, har qanday fan o`z obyektining yetuk, to`liq, aniq bo`lishini talab qiladi, ikkinchidan, ilmiy tadqiqot uchun salbiy natija ham ilmiy faraz isboti uchun zarur bo`lgan tajriba natijasidir. Axir bu muammo bekorga G`arbu Sharqda ko`plab ilm peshvolarining fikri-zikrini band qilmagan bo`lsa kerak, olmon olimi Arno Borstga yetti jildlik risolasini yaratish, farang tilshunosi Mari-Lyusi Demonitga 700 sahifani bitish, ital'yan semiotigi Umberto Eko va rus olimi Vyacheslav

Ivanovga o'z gro'zin hamkasbi Teymuraz Gamkrelidze bilan hamkorlikda bu borada maxsus tadqiqotlarni bajarish oson kechmaganligi aniq. Albatta, bunday izlanishlarning qadriga yetmoq, ushbu sohaga o'zini bag'ishlagan allomalarning ehtiromini, hurmatini bajo aylamoq darkor, biroq tilshunoslik fani rivoji uchun Odam Ato va Momo Havo Bog'i Eramda qaysi tilda muloqotda bo'lganligini bilish mushkuloti yoki barcha insoniyat uchun ma'qul keladigan lison (bu lison sun'iydan boshqa hech narsa bo'lmaydi) yaratish mashg'ulotiga vaqtu zakovatni sarflagandan ko'ra, "Lison etuklikka qanday intiladiq"; "Lisoniy etuklikning o'zi nima va u qanday shakl topadiq"; "Til tizimi taraqqiyotining bosqichlari lisoniy yetuklikning shakllanish bosqichlarimiq"; "Yetuklik har bir milliy tilga xosmi yoki umumiy til bo'lishi shartmiq"; "Milliy adabiy tilning rivoji etuklik namunasimiq" kabi savollar javobi samaraliroq ekanligiga aminman. Misol tariqasida mashhur adibimiz Pirimqul Qodirov 2005 yilda e'lon qilgan "Til va el" kitobini eslatmoqchiman. Zero, ushbu asar o'zbek adabiy tilining etuklikka intilish davrlari tarixiy lingvistik tadqiqi namunasidir .

Ma'lumki, lison - faqatgina insonga in'om etilgan ne'matdir. Shu sababli lisoniy hodisalar tadqiqi boshqa ijtimoiy hodisalar tadqiqidan tubdan farq qiladi. Zamonaviy falsafiy yo'nalish sinergetika ta'limotiga ko'ra barcha tabiiy va ijtimoiy hodisalar tizimli to'zilishga va o'z-o'zidan tarkib topish xususiyatiga ega. Tilning ham tizimli hodisa ekanligi allaqachonlar e'tirof etilishi, tilshunoslarning e'tibori ushbu tizimning qanday tashkil topganligi, uning tarkibida qaysi turdagi birliklar mavjudligi, bu birliklarning o'zaro munosabatga kirishishi, ushbu munosabatlar asosida hosil bo'ladigan to'zilmalarning umumiy tizim va uning bosqichli to'zilishdagi o'rni kabi qator masalalarga qaratilgan. Biroq oyektzni to'liq ilmiy bilish faqatgina tizimning tarkibiy tahlili bilan chegaralanib qolmasdan, balki ushbu tizimning qanday "ishlashi" (yoki ishlatilishi) bilan ham qiziqishi tabiiy. Til tizimining o'ziga xosligi uning "dualligi" ya'ni ikkitomonlamaligi, ikki tizimdan iborat bo'lishidir. Darhaqiqat, lisoniy faoliyat ikki asosiy qismdan iborat: til birliklari talaffo'zi va ular vositasida ifoda qilinadigan ma'no, mazmun.

Farang tilshunosi A.Martene "Umumiy tilshunoslik asoslari" nomli risolasi tilni "juft talaffo`zli (ikki marta talaffo`z etiladigan)" hodisa sifatida ta`riflayotib, ushbu hodisaning tovushli talaffo`z va ma`no ifodasidan tarkib topishini nazarda tutadi. Demak, til tizimiga oid har qanday tadqiqot uning "duallik", ikki tizimlilik xususiyatini e`tiborga olishi lozim.

Til va nutq dixotomiyasi - juftligining XX asr tilshunosligi taraqqiyoti uchun qanchalik muhim bo`lganligini alohida ta`kidlashga hojat bo`lmasa kerak. Sossyur kashf etgan ushbu qarama-qarshilik (unga nisbatan bildirilgan taniqidiy fikrlar ham etarli ekanligiga qaramasdan) dunyoning barcha hududlarida, turli yo`nalishlarda ijod qilib kelayotgan olimlarning (nafaqat tilshunoslarning) diqqatini jalb qilib kelmoqda. Ma`lumki, Sossyur o`z ma`ro`zalarida til va nutq juftligini quyidagi xususiyatlar qarama-qarshiligida ta`riflagan: ijtimoiylik - shaxsiylik, mavhumlik - aniqlik, passivlik - faollik, ruhiy - fizik, imkon (yashirin) - amalga oshirilganlik, virtual - aktual va boshqalar. Bulardan eng ko`p taniqidga uchraganlari ijtimoiylik - shaxsiylik va passivlik - aktivlik qarama-qarshiliklaridir. O`z paytida Э.Косериу aytgan fikrga ergashsak, til va nutqning farqlanishi benuqsondir (chunki til va nutq aynan bir narsa emas), ammo ushbu farqning Sossyur tomonidan qarama-qarshi xususiyatli deb qaralishi va shu bilan tilni nutqdan "o`zib qo`yilishi" tortishuvlidir.

Xo`sh, qanday qilib til va nutq bir-biriga qarshi qo`yilishi, biri ikkinchisidan o`zib qo`yilishi mumkin Sossyurning o`zi ham, til va nutqni "tamoman o`zgacha narsalar" ekanligini qanchalik ta`kidlashga urinmasin, bu ikki hodisaning o`zaro bog`liq ekanligini e`tirof etishdan boshqa iloji qolmagan edi: "bu predmetlarning har ikkovi o`zaro yaqin aloqada va bir-birini taqozo etadi: nutq tushunarli va shu asosda ta`sirli bo`lishi uchun til mavjud bo`lishi darkor; nutq esa til shakllanishi, tarkib topishi uchun zarurdir".

Sossyurshunoslarning keyingi yillar davomida olib borgan tadqiqotlari til va nutq munosabatini qarama-qarshi munosabat ko`rinishida emas, balki o`zaro bog`liqlikni taqozo etuvchi hodisa sifatida talqin qilish zarurligidan guvohlik beradi. Mashhur sossyurshunos R.Godelning o`quvchisi Bern universiteti professori Rudolf Engler "Umumiy tilshunoslik kursi"ning to`rt tomlik taniqidiy

matnini nashrga tayyorlatib, tinglovchilari yozib qoldirgan barcha daftarlar matnlarini qiyoslash asosida, Sossyurning til va nutq haqidagi fikrlarini mantiqan aniq anglash uchun ushbu fikrlarning olim ta'limotining umumiy g'oyalari doirasida qabul qilmoq zarurligini uqtiradi. Yuqorida aytilganidek, tilga "ijtimoiy va passiv", nutqqa esa "individual va faol" sifatlarining berilishi ko'pchilikning qattiq taniqidiga uchradi. Ammo "Sossyur fikri yo'nalishiga yanada e'tibordiroq qarasak, - deb yozadi R.Engler, - tavsif va ta'rifni butunlay o'zgartirishga majbur bo'lamiz; chunki tilni passiv hodisa sifatida ta'riflashimiz (nutqning faolligiga qarama-qarshi holda), Haqiqatdan ham hech qanday idrok etib bo'lmaydigan ta'rifdir. Agar biz lisoniy faoliyatning faol kuchi tilni harakatga keltirishini, uni faollashtirishini e'tirof etsak, berilayotgan ta'rif o'zgacha tus oladi".

Ayrim hollarda til va nutq hodisalari munosabatining noto'g'ri tavsif qilinishi sababini frantso'z tilidagi langage -langue - parole tushunchalari talqinidagi noaniqliklar bilan bog'lashadi. Ma'lumki, Sossyurning o'ziyoq ushbu uchlikdagi atamalarining tanlovi va ta'rifidagi qiyinchiliklarni sezgan. Frantso'z atamalarining olmon va lotin tillaridagi muqobillari mazmunan qanchalik darajada mos kelmasligini ko'rsatgan olim "yuqorida keltirilgan tushunchalarning birortasiga ham to'liq mos keladigan biror bir so'zni topish mumkin emas, shu sababli ushbu so'zlarni ta'riflash foydasizdir", degan xulosaga keladi. Sossyurning ushbu ogohi uning izdoshlari va tarjimonlarini ehtiyotkorlikka undashi kerak edi. Lekin afsuski, tarjimalarda turli variantlar paydo bo'ldi. Masalalan, olmon tilidagi muqobillik langue – Spracg'e, langage - Rede (Menschlicg'e Rede), parole - das Sprechg'en ko'rinishini olgan bo'lsa, ingliz tilida esa langage - speech (human speech), langue - language, parole - speaking qatoridagi atamalar qo'llanishga kirdi. Ushbu qatordagi tushunchalardan turli anglashilmovchiliklarga eng ko'p sabab bo'lgani langagedir. Ushbu tushuncha qariyb barcha hollarda insonning nutqiy qobiliyati bilan bog'liq holda talqin qilinib kelindi. Qiyoslang: olmoncha Rede (Menschlice Rede) va inglizcha speec (human speec) variantlarida "nutq (insoniy nutq)" tushunchalari kirib qolgan edi. Xuddi shuningdek, "Kurs"ning 1933 yilgi nashri ruscha tarjimasi muharriri deb hisoblashadi. "Kurs"ning 1977

yildagi ruscha nashri muharriri A.A.Xolodovich langage "lisoniy hodisalar umumlashmasi, yaxlitligi" tushinchasini anglatishini qayd etsa ham "rechevaya deyatel'nost'" tarjimasini saqlab qoliShuni ma`qul ko`rdi

Xullas, atamalarga nisbatan bunday ehtiyotsizlik langage tushinchasini tor ma`noda, ya`ni nutqqa xos harakatlar, xususiyatlar to`plami, nutq ijrosi bilan bog`liq faoliyat ko`lamida qarashga sabab bo`ldi.

Bizningcha, "nutqiy faoliyat" ("rechevaya deyatel'nost'") so`z birikmasi Sossyur qo`llagan langage tushinchasining mazmunini to`liqicha aks ettirmaydi, chunki langage ko`proq jamoaga xos (alohida shaxsga, individga emas) qobiliyatni, xususiyatni anglatadi. Faqatgina ushbu qobiliyatning alohida shaxs faoliyatida namoyon bo`lishinigina "nutq" va "nutqiy qobiliyat" sifatida qarash mumkin. Aslida, Sossyur langage tushunchasini til va nutqning munosabatini aks ettirish, ularning tabiatan dialektik yaxlitlikni tashkil qilishlarini, biri ikkinchisiz mavjud bo`la olmasligini ta`kidlash uchun qo`llagan bo`lsa ajab emas. Axir olim 1891-yilning noyabr oyida Jeneva universitetida o`qigan ma`ro`zalaridan birida langue va langage hodisalarini yaxlitlikda qarash lozimligini alohida uqtirganligini bilamizku: "Lisoniy faoliyatni, uning namoyon bo`lish (voqelanish) holatlarini o`rganmasdan turib, tadqiq qilish borasidagi har qanday harakat samarasizdir; shuningdek, alohida olingan tillarni o`rganish yo`lidagi harakat ham, ushbu tillarning lisoniy faoliyat tushinchasi doirasida umumlashadigan ma`lum tamoyil va qoidalarga amal qilishi unitilsa, hech qanday jiddiy ahamiyatga va haqiqiy ilmiy asosga ega bo`lmagan mashg`ulotdir". Muallif istaganidek, langage tushinchasi lisoniy voqelikni yaxlit va to`liq aks ettirishi lozim. Shu sababli bu tushinchani inson lisoniy faoliyati mazmunida anglamoq darkor deb hisoblayman. Sossyur merosining rus tilidagi so`nggi tarjimalari muharrirlari ham langage atamasini "yazikovaya deyatel'nost'" so`z birikmasi vositasida o`zgariShuni ma`qul ko`rishmoqdalar.

Sh Balli va A.Seshe 1915-yilda "Kurs"ning birinchi nashriga yozgan so`z boshida uning to`liq emasligi, taniqidlarga sabab bo`lishini oldindan ko`rgan edilar: "ammo ustoz o`z ma`ro`zalarida tilshunoslikning barcha sohalarini qamrab

olishga va ularning hammasini bir xilda to'liq yoritishga intilgani yo'q; u buni bajara olmasdi ham, uning maqsadi ham butunlay boshqa edi. Shaxsan unga xos bo'lgan qator printsiplarga binoan ... u faqatgina ushbu printsiplarni qo'llashga qulay vaziyat tug'ilgandagina va ularni "qoralash"ga qodir nazariy g'oyalar paydo bo'lgandagina masalalani chuqurroq va yanada kengroq o'rganar edi". Aynan shu sababga ko'ra ma'ro'zalarda semantika qariyb yoritilmagan, nutq lingvistikasi qismi umuman berilmagan. Shunisi quvonarliki, nutq lingvistikasini sossyurchilar umuman unutib qoldirmadilar, ular o'z ustozlari eslatib o'tgan ushbu sohani nazariy jihatdan asoslashga urindilar hamda til va nutq hodisalari munosabatini til birliklarining matnda faollashuvi nuqtai nazaridan tahlil qilishga urindilar. Bu borada, ayniqsa, Sh.Balli targ'ibot qilgan faollashuv nazariyasining samarasi sezilarlidir.

Sossyur o'z ma'ro'zalarida murojaat qilgan tushunchalarning yana biri "lisoniy qobiliyat" tushunchasidir. XIX asrning mashhur tilshunoslaridan biri U.D.Uitni, til belgilarining ixtiyoriy, shartli ekanligini birinchilardan bo'lib qayd etayotib, biz tovush organlaridan faqatgina qulayligi uchungina foydalanishimizni, aslida muloqot uchun imo-ishoraning o'zi etarli bo'lishi mumkinligini isbotlamoqchi bo'lgan. Sossyur Uitni til tizimi shartli belgilardan iborat ekanligi haqidagi fikrida haq ekanligini qayd etish bilan birgalikda, ushbu tezisni o'ta mutlaqlashtirish xavfidan ogohlantiradi: "til boshqa turdagi ijtimoiy to'zilmalarga to'lig'icha mos keladigan hodisa emas". Uning fikricha, inson uchun alohida tushunchalarga mos keladigan belgilar tizimi, ya'ni tilni tashkillashtirish qobiliyati" tabiiydir va ushbu belgilar tizimini "boshqarish", undan foydalanish inson lisoniy qobiliyatining zimmasiga tushadi.

Demak, til tizimi nimalardan iborat-u, undan qanday foydalaniladiq mazmunidagi savol ham Sossyur e'tiboridan chetda qolmagan ekan. Ammo o'tgan asrning 50 - yillarigacha tizimiylikni tilning ichki strukturasidan izlagan tilshunoslar lisoniy qobiliyat muammosi bilan shug'ullanishga unchalik imkon topolmadilar yoki vaqt ajrata olmadilar. Xolbuki, Galileo Galiley (1564-1642) Italiyaning Piza shaxrida bitgan Dialogo asaridayoq inson o'zining "eng maxfiy

sirlarini xam boshqa birovga yigirma to`rtta belgining turlicha birikishi vositasida" etkaza olishidan xayratda ekanligini yozgan edi. haqiqatan ham xar qanday til sohibi bor - yo`g`i 20-30 tovushdan foydalanib, ya`ni ulardan turli birikmalar yasab, boshqalarga o`z fikrini etkazadi, muloqotga kirishadi. Lisondagi bunday cheksiz imkoniyatni "Galileyning ajoyib ixtiro" deb atagan Port Royal' filosof-grammatiklari aynan shu "ajoyib ixtiro", ya`ni tilning ijodkorlik, ifoda imkoniyatini tadqiq qilish tilshunoslik fanining asosiy predmeti va mavzusi bo`lishi lozimligini uqtirishdi. Lekin lisonning ijodkorlik xususiyati va uning soxiblarining lisoniy foibiliyati mavzularining asosiy tadqiqot soxasiga aylanishi anchagina qiyin kechdi. Bunga faqatgina fanda "ikkinchi kognitiv inqilob" yo`z bergandan so`nggina erishildi.

"Ikkinchi kognitiv inqilob" daxosi nomini olgan Noam Chomskiy (birinchi inqilob Galiley davrida yo`z bergan) 1999 yil noyabr' oyida Siena universitetida (Italiya) o`qigan ma`ro`zasida lison tadqiqidagi ushbu o`zgariShuni quyidagicha ta`rifladi: "Har bir botiniy (ichki) til biz o`z fikrimizni ifoda etishda foydalaniladigan mantiqiy obyektlarni hosil qilish va biz uchratadigan kalimalarning cheksiz qatorini anglash imkonini beradigan vositalarga ega. Ushbu mantiqiy obyektlar ma`lum bir shaklda tovush va ma`no bilan bog`lanadilar. Ma`lum mexanizmlarning cheksiz miqdordagi obyektlarni qanday hosil qila olishini faqatniga 20 asrda formal fanlar rivoji natijasida aniq tushunishga erishdik... Shuning natijasida o`tgan yarim asr davomida tilshunoslik tadqiqotlarining katta qismi aynan shu mexanizmlar tadqiqiga oid bo`ldi. "Generativ grammatika" nomini olgan ushbu yo`nalish tilshunoslikning o`zoq va boy tarixida muxim yangilik bo`ldi".

Xo`sh, Chomskiy ta`kidlayotgan yangilikning mazmuni nimadan iborat-u, "ikkinchi kognitiv inqilob" qanday tamoyillarga asoslanib istiqbolda samara ko`zlamoqdaq

Ushbu savolga javob topish uchun Chomskiy, uning izdoshlari va turli yo`nalishdagi psixolingvistlarning lisoniy qobiliyatning xosil bo`lishi va rivojlanish manbalari haqidagi fikrlarini qiyoslash lozim bo`ladi.

Ma'lumki, insonning "so'zni egallashi" muammosi ko'plab tadqiqotlar mavzusi bo'lgan. Faylasuf, tilshunos, ruxshunos, fiziolog, pedagoglar asrlar davomida bu muammo ustida bosh qotirishgan (qarang: Ushakova 2003). Qizig'i, aytilayotgan fikrlarning barchasi ham asoslidek, mazmundordek tuyuladi. Har holda, ularning har biri jumbog'ning biror bir bandi, tugunchasi echimiga yaqinlashish, yo'q topish sari qo'yilgan qadamdir. Ana shunday qadamlardan shaxdami va dadili Chomskiyniki desak, mubolag'a bo'lmasa kerak. Olim 1957 yilda nashr qilingan "Sintaktik strukturalar" asaridan boshlaboq, lisoniy qobiliyat shakllanishini lisonning yaratuvchanlik xususiyatidan, uning inson ongi, aqliy qobiliyati bilan chambarchas bog'liqligidan izlaydi. Uning tasavvurida til strukturalari ikki qobiqdan (sathdan) iborat. Gap va boshqa turdagi lisoniy to'zilmalar xosil bo'lishida dastlab inson ongida fikr va xukm tizimi hosil bo'ladi va ushbu botiniy tizim mavxum xarakterdagi kategoriyalardan tarkib topadi. Keyingi bosqichda ushbu botiniy strukturalar, maxsus amallar, ya'ni grammatik transformatsiya - ko'chirishlar yordamida lisoniy voqelanadilar, zoxiriylik kasb etadi. Zoxiriy struktura xam ma'lum kategoriyalardan iboratdir, ammo ular endilikda konkret ko'rinishga egadirlar. Eslatilgan amallar umumlashmasini Chomskiy lisonning universal (umumiy) grammatikasi (Universal Grammar) deb ataydi. Uning talqinicha, universal grammatika barcha tillar sohiblari uchun umumiy bo'lib, unda "tug'ma" (innate, inborn) tamoyillar faollashadi. Tilni o'zlashtiruvchi va undan foydalanuvchining (u ona tili yoxud xorijiy til bo'lishidan qat'iy nazar) vazifasi maxsus qoidalar turkumi o'z tajribasi va universal grammatika tamoyillari doirasida "ishlashga majbur etishdan iboratdir".

So'zsiz, xar qanday lisoniy qurilma xosil bo'lishining dastlabki bosqichi idrok etilayotgan voqelikning ongdagi in'ikosi, yo'zaga kelishi va uning tafakkurda "xazmu tahlil qilinishi natijasida hosil bo'ladigan kontseptning tug'ilishidir", keyingi ya'ni lisoniy voqelanish esa turli xil amallardan iborat bo'lib, bu amallar til tizimi xususiyatlari bilan bog'liq xolda kechadi. Shunga ko'ra Chomskiy izidan borib, lisoniy faoliyatda biz murojaat qiladigan qoidalarni generativ, ya'ni "tug'ma" (generated) va transform (transformed)lariga ajratish

mumkin. Ushbu qoidalarini o`zlashtirgan shaxs oldin hech qachon uchratmagan va eshitmagan nutqiy birliklarni to`zish qobiliyatiga ega bo`ladi. Boz ustiga, ushbu shaxs "bizniki siznikini yaxshi ko`radi", "meniki bugun ketadi" qabilidagi Dersu O`zla lahjasidagi gaplarning noto`g`ri to`zilganligini aniqlay oladi.

Ammo botiniy strukturadan zohiriylikka ko`chish jarayonining qanday kechishi yoki, boshqacha aytganda, lisoniy va kognitiv hodisalarning qay yo`sinda moslashuvi masalalasi sirlidir. Chomskiyning o`zi ham bu masalala ustida "bosh qotirish"dan to`xtaganicha yo`q.

Tajriba ko`rsatadiki, lisoniy faoliyatni ta`minlovchi tamoyillar boshqa turdagi faoliyat doirasida mavjud bo`lgan tamoyillardan tubdan farq qiladi. Binobarin, bu tamoyillar bizning ko`rish, musiqiy va san`atkorlik qobiliyatimizdan, mantiqiy va matematik iqtidorimizdan farq qiladi. Demak, inson ongini butunlay bir yaxlit tizimdan ko`ra ko`proq kichik tizimlar "hamkorligi" sifatida qarash ma`qulroqdir, lekin bu kichik (mikro) tizimlar, qanchalik darajada mustaqil harakatda bo`lishmasin, baribir ushbu harakatlar bir-biri bilan munosabatda, bog`liqlikda kechadilar. Chomskiyning keyingi yillardagi xarakati aynan shu bog`liqliklar sabablarini izlashga qaratildi. Shu yo`sinda Parametrlashtirish (nutqiy to`zilmalarni xosil qiluvchi mexanizmlarning asosiy xususiyatlarini topish), optimallashtirish yoki Minimallashtirish (lisoniy tejamkorlikni ta`minlash) kabi qator nazariyalar (Parameters Theory; Optimality Theory; Minimalist Program) shakllandi. Bu nazariyalar Universal Grammatikada barcha tillar uchun umumiy tamoyillar mavjudligiga Yana bir kara ishontirish bilan bir qatorda, tillararo farqni yo`zaga keltiruvchi manbalarining tabiatini tushuntirish yo`lidagi urinishdir. Parametrlashtirish nazariyasiga binoan barcha parametr va tamoyillar aloxida tillarda "vklyuchatel'" (switches) to`plamida kodlashtiriladi, tildan foydalanuvchining vazifasi esa ushbu vklyuchatelning "tugmacha"sini (triggers) to`g`ri bosishdir. Optimallashtirish nazariyasi o`z navbatida tillararo farqlarni umumiy (majburiy) qoidalarining aloxida tillarda turli darajada kodlashuvi bilan bog`laydi. Bu holda til o`rganuvchi va undan foydalanuvchiinng vazifasi

ushbu umumiy qoidalar majmuasidan foydalaniShuning eng oddiy, hammabop "kaliti"ni topishdir .

Albatta, Chomskiy ta`limoti ko`pchilikning diqqatini jalb qilmasdan qola olmas edi. Zero, uning asosiy g`oyasi lisonning inson faoliyatida tutgan o`rni va umuman lison xamda tafakkur faoliyatlarining tutashtiruvchi rishtalar hamohangligiga tayanadi. Ammo ushbu ta`limot g`oyalari xamma tomonidan bir xilda qabul qilinishini xam kutish mumkin emas. Bekamu ko`st g`oya absolyut xaqiqat ko`rinishidagina bo`lishi mumkin. Chomskiy esa hozircha payhambar emas va menimcha, u bunga da`vo xam qilayotgani yo`q. U ham taniqidga bardosh bera oladi.

Olim ta`limotidagi eng taniqidbardor g`oya - Universal grammatika g`oyasi, desam adashmasam kerak. Chomskiyning uqtirishicha, universal grammatika tug`madir. Shundaymikanq Birinchidan, go`dak o`zi yashayotgan muhitdagi, ya`ni eshitib to`rgan tili, grammatikasini o`zlashtiradi. Shu ma`noda bu grammatika universal (barcha uchun umumiy) emas. Aslida, Chomskiy ushbu turdagi grammatikani boshqacha, masalalan, "grammatikaning mag`zi, negizi" deb atasa, ma`qul bo`larmidiq! Lekin universal grammatikaning barcha tillar uchun umumiy bo`lishini xech kim nazarda tutmagan, u go`daklar dunyodagi har qanday tilni o`zlashtirish jarayonida qo`llashi lozim bo`lgan "qurollar (vositalar)" majmuasidir. Ikkinchidan, grammatikani tug`maligi qay darajada ekanligini bilmoq zarur. "Tug`ma" (innate) so`zi lug`atlarda kishida "tug`ilishdanoq mavjud bo`lgan" (present at birth) izoxini oladi, xolbuki, lisoniy qobiliyat va shuningdek, lisoniy bilim tug`ilgandan so`ng shakllanmaydimiq Yoki olaylikki, lisoniy qobiliyat insonga Ollox tomonidan in`om etilgan bo`lsin, lekin lisoniy bilimni o`zlashtirish go`daklik davrida (2-3 yoshlikda) kechadi-ku! Bu bilimni o`zlashtirishda atrof-muxitning ta`siri xam etarlidir. qolaversa, inson organizmining muhim a`zosi bo`lgan tish xam tug`ilgandan so`ng chiqa boshlasa ham "tug`ma" sifatini olishi mumkinligini unutmaslik kerak.

Chomskiy barcha tillar uchun umumiylik va tug`malik xususiyatlarini botiniy struktura uchun xam xos ekanligini ta`kidlaydi degan fikr ham yo`q emas.

Natijada, uning izdoshlari generativ grammatikani ma`no xodisasininig mohiyatini bilish kaliti sifatida targ`ib qila boshladilar. Biroq qator tilshunoslar botiniy strukturani ma`no (semantika) bilan aynan ekanligini tasdiqlashga qanchalik urinishmasin, Chomskiy va uning ayrim shogirdlari bu fikrga qo`shilmadilar. Pirovard natijada bu "lisoniy jang"da chomskiychilar g`olib chiqishdi. Darhaqiqat, botiniy struktura sintaktik derivatsiyaning ma`lum bosqichidir va uning mazmun doirasi barcha tillar uchun umumiy bo`lishi shart emas.

Umuman, ma`no va mazmunning shakllanishi xamda uning lisoniy voqelanishi muammosi o`ta murkkab ekanligi barchamizga ma`lumdir. Bu muammo ustida asrlar davomida bosh qotirishayotgan psixologlar, tilshunos va mantiqshunoslar va boshqa "shunoslar" uchun bir xilda ma`qul tushadigan ilmiy xulosa yoki xech bo`lmaganda taxlil metodiga va uning asosi bo`la oladigan metodologik g`oyaga erishiShuning o`zi ham gumon. Hozircha barcha umid kognitologiyadan, uning muxim soxasi bo`lgan kognitiv tilshunoslikdan, balki uning doirasiga ma`noning "tug`ilishi" va lisoniy ifodasi masalalasi o`z talqinini to`lig`roq toparq! Lekin generativ semantika yo`nalishi bu vazifani uddalay olmadi. Haqiqatdan ham agarda Chomskiy ta`limoti shakllanishining ilk davrida aytilgan "ma`noni ifodalovchi botiniy struktura barcha tillar uchun umumiydir va u tafakkur shakllarining oddiy aksidir" qabilidagi fikrni bir tomonlama, xuddi generativ semantika tarafdorlaridek anglasak, unda xatolikka yo`l qo`yishimiz va umuman ta`limotdan "ko`nglimiz sovishi" to`rgan gap. Xolbuki, Chomskiy ushbu fikrni Por-Royal monastirida yaratilgan grammatikadan olib aytmoqda (uni olimning o`zi xam bir necha bor qayd etgan) va hech qachon ma`no-mazmunni to`lig`icha botiniy strukturaning aynan o`zi ekanligini ta`kidlagan bo`lmasa kerak. Aks xolda, u keyingi ishlarida ma`no tarkib topishini sintaksisning yana bir satxi-mantiqiy shakldan izlamagan bo`lar edi.

Chomskiy ta`limotining shirali g`oyasi joylashgan mag`z uning izchillik bilan lison inson mulki ekanligini ta`kidlash yo`lidagi urinishlardandir. Olimning lisoniy qurilmalar botiniy va zoxiriy strukturalarga ega bo`lishi haqidagi fikri unchalik darajada katta yangilik emas edi. Bunga yaqin g`oyalar tilshunos

V.Gumboldt (gapning "ichki" va "taShui" shakllari haqidagi fikr), faylasuf Lyudvig Vitgenshteyn va Por-Royal grammatikasi mualliflarida ham mavjud bo'lganligini Chomskiyning o'zi xam e'tirof etgan. Bundan taShuari, G.Shteyntal, V.Vundt, G.Shpet, A.Potebnya kabilar ham so'zning "ichki" va "taShui" shakldan iborat ekanligi haqida muxim fikrlar bildirgan. Chomskiyning eng katta xizmatini uning ilmiy tafakkuri asosan insonning lisoniy qobiliyati xususiyatlarini yoritishida ko'rish lozimligini xech qanday shartsiz qabul qilgan. Balki uning opponentlari Chomskiy ushbu tushunchaga bergan tavsifi ayrim nuqsonlardan holi emasligida haqdirlar. Ehtimol, olim lisoniy qobiliyatni grammatik jixatdan to'g'ri gaplar to'za olish qobiliyati darajasida talqin qilib, ushbu qobiliyat voqelanishi jarayoni, uning miqyosini ma'lum darajada cheklab qo'ygandir.

Lisoniy faoliyat tilni bilish va undan foydalanishdan iborat bo'la olmasligini sezgan olim competence "qobiliyat" tushunchasi bilan birgalikda performance "bajarish, ijro etish" tushunchasini qo'llaganlardan biridir. "Performatsiya" - lisoniy qobiliyatning nutqiy jarayonda amalga oshirilishi, botiniy imkoniyatning faollashuvidir. Lekin mavjud imkoniyatning faollashuvi, lisoniy qobiliyatning voqelanishi, inson ongida hosil bo'lgan kognitiv to'zilma - botiniy strukturaning zohiriy tus olishi, ya'ni nutqiy rejaning ijro etilishi uchun yagona bir so'zlovchi shaxsning o'zi etarli emas. Ijrochiga tinglovchi - hamsuxbat darkor, tinglovchi bo'lmaganda, hech qanday gap va boshqa lisoniy to'zilmalar yaratishga xojat qolmas edi. Chomskiyning kamchiligi xam aynan shunda, zero, u lisoniy qobiliyatni birtomonlama talqin qilib, faqatgina so'zlovchi shaxsga xos bo'lgan hodisa sifatida ko'radi. Natijada, lisonning yaratuvchanlik imkoniyati talqini ham torayib, alohida shaxslarning kreativ qobiliyati darajasiga tushib qoladi.

Shu sababli bo'lsa kerakki, Chomskiy ta'limotining taniqidchilari "lisoniy qobiliyat" tushunchasini kengaytirish lozimligini sezishdi va "kommunikativ qobiliyat" (communicative competence) tushunchasini ma'qul ko'rishdi. Fikrimcha, bu ikki tushuncha bir-birini inkor etmaydi, chunki kommunikativ qobiliyatga, muloqot ko'nikmasiga ega bo'lish uchun lisoniy bilimga, tilning yaratuvchanlik imkoniyatlaridan foydalana olish qudratiga ega bo'lmoq kerak.

Xuddi shuningdek, lisoniy qobiliyatning o'zi ham kommunikativ hamkorlik uchun darkor, uning shakl topishi kommunikativ ehtiyoj talabidir. Bu ehtiyoj esa, o'z navbatida, ijtimoiy sharoitda, shaxslarning hamkorlikdagi faoliyati jarayonida tug'iladi. Demak, lison haqidagi fanning insoniy munosabatlar va bunday munosabatlarning kechishida lisonning roli, shu rolning ijrosi jarayonida tilning yaratuvchanlik xususiyatlarining namoyon bo'lishi kabi muloqot hislatlari sari yo'l olishi muqarrar edi. Gumboldt, Sossyur, Chomskiy, Boduen de kurtene, Sherba kabi o'nlab olimlarning ta'limotlari tilshunoslik fani doirasida yangi ilmiy-paradigma - kommunikativ-pragmatik tahlil yo'nalishi yo'zaga kelishiga sabab bo'ldi va ushbu yo'nalish uchun nazariy tayanch xizmatini o'tadi.

2.2. Lingvistik pragmatikaning amaliy va nazariy shakllanishi.

Inson nutqiy faoliyati bilan bog'liq uning ichki va tashqi ruhiy olamini nutqdagi oshkora va yashirin ifodasini tadqiq etish, ularni tahlil qilish insonning o'z nutqi orqali o'zligini namoyon etish kabi masalalarni o'rganish bugungi milliy his, milliy mafkura va milliy g'oya tushunchalarining mohiyatini ochishda muhim o'rin tutadi. Shu nazardan insonning obyektiv olamdagi ijtimoiy faoliyati o'zida mujassamlashtirgan uning uning "harakati"dagi, "jonli" nutqini tadqiq etish faqat sof tilshunoslik uchungina emas, balki psixolingvistika, sotsiolingvistika, lingvistik geografiya, kommunikativ tilshunoslik, neyrolingvistika kabi umumtarmoqlar uchun ham muhim ahamiyatga ega.

Insonning obyektiv olamdagi barcha ijtimoiy hatti -harakatlari uning nutqiy faoliyatida o'z ifodasini topadi. Shuning uchun inson nutqini o'rganish uning ma'naviy olami bilan tanishish imkoniyatini beradi. Pragmatika tilshunoslik faning nazariy va amaliy tarmoqi sifatida insonning ijtimoiy faoliyatini o'zida mujassamlashtirgan nutqiy jarayon, nutqiy vaziyat ta'siri bilan namoyon bo'luvchi nutq ishtirokchilariga xos kommunikativ niyat bilan aloqador masalalarni o'rganadi. "Pragmatika tilshunoslik fanining yangi sohalaridan biri bo'lib, uning manbasi CH.Pirs, U.Djems, D.Dion, CH.Morris kabi taniqli filosof olimlarning nomi bilan bog'liq. Pragmatika grekcha pragmos so'zidan olingan bo'lib, "ish"

"harakat" ma'nolarini ifoda etadi. Pragmatika terminini 20 asrning 30 yillarida CH.Morris tomonidan ilmiy hayotga olib kiritildi. U semiotikani semantika, sintaktika, pragmatika kabi tarkibiy qismlarga ajratdi. Tilshunoslikda pragmatikaning yangi tadqiqot ob'ekti sifatida yo`zaga kelishi va ajratilishi Ch.Pris g`oyalari, Dj.Ostin,Dj.Serllarning mantiqiy-falsafiy qarashlari, P.Graysning ma`noning pragmatik nazariyasi va L.Linskiy, P.Stronsonlarning referentsiya nazariyasi ta`siri bilan o`zviy bog`liq. Ularning nazariyasi pragmatikaning fan sifatida shakllanishi uchun boshlangich amaliy va nazariy manba bo`lib xizmat qildi. Aynan mana shunday holatda lingvistik pragmatika falsafiy goyalar ta`sirida shakllana boshladi. 1977-yildan boshlab, Amsterdamda aynan lingvistik pragmatikaga bag`ishlangan maxsus jurnal nashr qilina boshlandi. Jurnal "Nutqshunoslik" va "Tekstologiya"ning turli yunalishlari bilan bog`liq masalalarni yoritishga bag`ishlangan maqolalarni to`plam sifatida e`lon qiliShuni o`z oldiga maqsad qilib qo`ydi.

Lingvistik pragmatika so`zlovchi ijtimoiy faoliyatining nutqdagi real ifodasini qamrab oladi.

Lingvistik pragmatikaning tilshunoslik fanining alohida tarmoqi sifatida shakllanishi uning oldiga qator masalalarni qo`ydi. Pragmatikani tilshunoslikning boshqa sohalaridan ajratish va uning tadqiqiy manbasini chegaralash natjasidagina lingvistik pragmatikani yangi tarmoq sifatida talqin etish mumkin bo`ladi. Lingvistik pragmatikaning eng muhim jihatlaridan biri uning boshlang`ich chegarasini aniqlashdir. Shu ma`noda tilshunos olim V.V.Petrovning til haqidagi quyidagi tezisini esga olish lingvopragmatikaning boshlang`ich tadqiqiy chegarasini aniqlash uchun lingvistik mezon bo`ladi: "Inson qaysidir tilga xos semantik bilimlarsiz so`zlashi yoki anglashi mumkin emas, ammo usha tilga xos semantik bilimlar egasi bo`lishuning o`zi ushbu tilda so`zlash va anglash uchun kifoya qiladi degani emas, xuddi musiqali pyesa mazmuniy bilimlari uning ijrosi uchun yetarli bo`lmaganidek va buning uchun eng asosiysi o`yin mahorati, layoqati ("umenie igrat") ga ham ega bulish lozim" bo`ladi. Bizning qarashimiz bo`yicha, so`zlash va anglash jarayoni ham xuddi shunday. Shuning uchun ham

to'g'ri va aniq so'zlash uchun hammaga tushunarli bo'lgan semantik bilimlarning o'zinigina bilish yetarli emas, so'zlash va to'g'ri ifodalash uchun individual strategiya mahoratiga ega bo'lish lozim. Nutqiy faoliyat - til ham xuddi shundaydir. Inson semantik bilimlarga ega bo'lishi mumkin, bunga ijtimoiy muhitning o'zi har qanday shaxs uchun ma'lum imkoniyatlarni yaratadi. Biroq semantik bilimlarga ega bo'lishuning o'zi insonni so'zlash, fikrlash va ifoda mazmunini anglashi uchun kamlik qiladi. Inson tildagi barcha semantik bilimlarni bilishi bilan birga ularni o'z maqsadi yo'lida tanlay olishi va ifodalash imkoniyatiga ega bo'lishi lozim. Tildagi ayni mana shu jihatlarni lingvistik pragmatika o'rganadi. F.de Sossyur tilni shaxmatga qiyoslash natijasida obyektiv olamdagi predmet, narsa va hodisalarning shaxmat donalari sifatida nomlagan bo'lsa (shaxmat donalarni yuriShuni bilgan bilan o'yin ko'rsatiShuni ham bilish kerak), Vitgenshteyn esa tilga xos umumiy qonuniyatlarni "semantik o'yin subyekti uchun ma'lum tushunchalar semantika deb qaraladi, har bir semantik o'yinga xos oddiy yurish tartibi ham semantika, o'yin ishtirokchilarining o'ziga xos strategiya tushunchasi pragmatika deb talqin etiladi.

Demak, nutq akt bilan matn urtasidagi munosabat juda kuchli bo'lganda, nutqiy akt matn bilan bog'liq holda echilgan joyda pragmatikaga ehtiyoj tugiladi. Sintaktik qurilma tarkibida deskriptiv so'zlar taxlili semantikaga qarab tortsa, deskriptiv bo'lmagan so'zlar tahlili pragmatikaga qarab tortadi.

Shunday ekan, avvalo, deskriptiv va deskriptiv bo'lmagan so'zlarning mohiyati haqida fikr yuritishga to'g'ri keladi.

Agash vazifasini bajaradigan, denotativ ma'noga ega bulgan so'zlar indikativ yoki deskriptiv so'zlar hisoblanishi yuqorida ta'kidlandi. Indikativ (denotativ ma'noli) so'zlarning ma'nosini matnga bo'g'liq bo'lmagan holda aniqlash mumkin bo'lsa, indikativ bo'lmagan so'zlarning ma'nosi faqat matn ichida, muayyan nutq vaziyatiga bogliq ravishda ochiladi. Shuning uchun ham bunday so'zlar matn va nutq vaziyati bilan o'zviy bog'liq bo'ladi.

Yuqorida ko'rsatilgan ikki turdagi so'zlarni farqlash uchun B.Rassel ularni zooparkka qiyoslaydi. "Agar siz farzandingizga sher so'zining ma'nosini

tushuntirmoqchi bo'lsangiz, uni zooparkka olib borishingiz va "mana bu sher" deb ko'rsatishingiz mumkin. Lekin indikativ bo'lmagan agar, bu kabi so'zlarni ko'rsatish mumkin bo'lgan zoopark mavjud emas", - deydi B.Rassel.

Indikativ bo'lmagan so'zlar qatoriga kiruvchi olmoshlar, atoqli otlarning konkret ma'nosi faqat matnda, ma'lum nutq vaziyatida oydinlashadi. Shuningdek indikativ bo'lmagan so'zlar qatoriga yoradamchi so'zlar ham kiritiladi. Chunki bunday so'zlar ham matn yoki nutq vaziyati bilan bog'langandir.

Shunday qilib, gapdan anglashilgan mazmun bilan subyekt munosabati pragmatikaga daxldordir. Nutqiy akt indikativ bo'lmagan so'zlar, matn, nutqiy vaziyat, so'zlovchi shaxsi kabi tushunchalar lingvistik pragmatikning markaziy tushunchalari sanaladi.

2.3. Lingvistik pragmatikaning birliklari

Badiiy adabiyotda mavjud faktik materiallar hamda so'zlashuv uslubi bilan bogliq kundalik nutqiy muloqot shakllariga xos xilma-xil mazmuniy ifodalarning lingvistik tadqiq va pragmatik talqini pragmatikani tilshunoslikning alohida tarmogi sifatida ajratiShuni talab etadi. Lingvistik pragmatika tilshunoslik fanining alohida tarmoqi sifatida ajratilar ekan, uning asosiy birliklarini belgilash tadqiqot natijalarini ko'rsatish uchun asosiy mezon vazifasini o'taydi. Shu ma'noda pragmatika birliklarini til va nutq elementlari sifatida talqin etish iShuning tilshunoslik fani tarkibidagi qimmatini oshiradi.

"Semantikaga bo'lgan qiziqi shuning uyg'onishiga lingvistik nazariya rivojiga ta'sir etgan bir qator omillar: lingvistikaning gap mazmuni - propozitsiyaga alohida diqqat qiluvchi mantiq bilan munosabatining yangi pog'onaga ko'tarilishi, til va nutqning ma'no tomoniga umumiy burilishi, nutq faoliyatining pragmatik komponentiga e'tiborning kuchayishi, gapga o'zining maxsus ma'nosi bo'lgan til belgisi sifatida qarashuning paydo bo'lishi hamda gaplarning mazmuniy ekvivalentligi tushunchasiga tayanadigan sintaktik transformatsiya nazariyasining vujudga kelishi singari omillar turtki bo'ldi" .

Ma'noli birliklarning ikki yunalishda - onomasiologik va semasiologik tomondan o'rganish mavjud. Onomasiologik planning o'ziga xos xususiyati shundan iboratki, obyektiv olamdagi makro va mikro olamlarning tilda qanday ifodasini topishiga e'tibor qaratiladi. Buning natijasida har qaysi tilning o'ziga xos ifoda imkoniyatlari ochiladi. Xuddi shuni hisobga olib, tilni maydon sifatida o'rganishga diqqat qilinadi. O'zbek tili pragmatikasi ham belgi nazariyasi bilan shug'ullanuvchi alohida fan sifatida semiologiyaning tarkibiy elementlaridan biri hisoblanadi va o'z navbatida obyektiv olamdagi voqeliklarni aks ettiruvchi elementlardan tashkil topib, funktsional maydon sifatida ma'lum sistemaga birlashadi. Demak til elementlari xususiy munosabatni ifodalash vazifasiga ko'ra pragmatik maydonni hosil qiladi.

O'zbek tilshunosligida pragmalingvistika yo'nalishi bo'yicha ba'zi tadqiqotlar amalga oshirilgan bo'lsa-da, biroq so'zlovchi va tinglovchi shaxsi, nutqiy akt ishtirokchilarining o'zaro munosabati axloqiy tuyg'ularga ta'sir etish va uni boshqarish kabilar lingvistik pragmatikaning muammolari sifatida o'z talqiniga ega bo'lmadi. Shuningdek pragmalingvistik birliklar, tilning pragmatik modellari xususida o'zbek tilshunosligida, umuman, so'z yuritilmaydi. Pragmatika tilshunoslik fanining alohida bo'limi sifatida endigina o'rganilayotganligi tufayli pragmalingvistika kategoriyasi hamda uning birliklari to'g'risida so'z yuritib g'ayri tabiiydek tuyuladi. Biroq L.A.Kiseleva har qanday tadqiqot obyekti ma'lum lingvistik birliklar sistemasidan iborat ekanligi, ular maxsus til modellarini hosil qilishini pragmalingvistik birliklar va kategoriyalar mavjud ekanligini to'g'ri ta'kidlaydi. U pragmalingvistik birliklar xususidagi nazariy qarashlarini taniqli tilshunos - L.Bertalanfi, A.A.Leontev kabi olimlar g'oyasi yordamida asoslaydi. Ularning ta'kidlashicha, "o'zida aniq yo'nalishga ega bo'lgan barcha ilmiy to'zilmalar modellar sanaladi", shuningdek "Tahlil natijasi sifatida biz nimaga ega bo'lamiz, o'zimizning lingvistik faoliyatimizda nimaga erishamizq Bu til modellaridir".

Demak, lingvistik faoliyat bilan aloqador har qanday tadqiqot natijasi nimadir beradi. Shu ma'noda tilshunoslikning pragmatika bo'limi ham ta'sir etish hamda boshqarish birliklariga ega bo'lib, til modelini hosil qiladi. Buning uchun esa "tilning pragmatik xususiyatlarini aks ettiruvchi (bu xususiyatlar ta'sir etish va boshqarish funktsiyalaridan iborat bo'lib, bular so'zlovchi maqsadi asosida birlashadi) maxsus pragmlingvistik birliklar sistemasini ajratishdan iboratdir".

Til aloqa-aralashuv vositasi sifatida kishilar o'rtasidagi sotsial munosabatlarni yo'lga soladi. Til birliklarini lingvopragmatik yo'nalishda o'rganish uchun nutqiy akt tushunchasining o'zi etarli hisoblanmaydi.

Nutqiy ta'sir etish va nutqiy kommunikatsiya nazariyasining funktsional asosga ega bo'lishiga ko'ra sintaktik birliklardagi axborot tarkibi til birligi sifatida ikkiga ajratiladi: 1. Informema. 2. Pragmema. Bular pragmlingvistik birliklar sanaladi.

Pragmlingvistik birliklar til birliklari bilan funktsional til maydonida to'g'ridan-to'g'ri zidlanishi ko'rinadi.

Matn yoki nutq vositasida bayon qilingan har qanday axborot so'zlovchining ma'lum ichki maqsadini ifoda etish uchun xizmat qiladi. Shu ma'noda matn tarkibidagi axborot ko'rinishini ikki guruhga ajratildi. Informema matn yoki nutqda faqat so'zlovchi nazarda tutgan neytral vazifaga ega bo'lgan oddiy axborot kurinishdir yoki so'zlovchi xususiy munosabatidan holi bo'lgan propozitiv mazmundir.

Informema - tilning turli sathiga oid birliklar bo'lib. ular faqat ratsional, intellektual axborot tashuvchi belgilarga ega bo'ladi. Informemalar o'zida faqat ratsional, intellektual axborot kurinishlarini ifoda etish bilan pragmemalardan ajralib turadi. Informemalar intellektual - informativ axborot birliklari bo'lib, ular bajarayotgan vazifasiga ko'ra, intellektual-informativ til maydonining qurilish unsuri sifatida ko'rinadi.

Pragmemalar esa inson axloqiga ta'sir etish funktsiyasiga ko'ra informemalar bilan oppozitsiyaga kirishadi. Agar informema faqat intellektual-informativ belgisi bilan namoyon bo'lsa, pragmemalar so'zlashuvchilar o'rtasidagi

munosabatda inson axloqini aks ettirish xususiyatiga ko`ra ajralib turadi va aynan shu belgisi bilan oppozitsiyada bo`ladi.

L.A.Kiselevaning ta`kidlashicha, pragmemalar ham tilning turli sath (daraja)dagi birliklari bo`lib, ular maxsus pragmatik topshiriq bajarishga xoslangan bo`ladi. Bular inson xulqini boshqarish uchun tayinlanadi. Bularga nutq subyeksi ichki ruhiyati bilan aloqador emotsional hodisalarni ifoda etuvchi til birliklari kiradi. Pragmemalar doimiy pragmatik axborot tashuvchilardir. Pragmemalar o`z semantikasiga kura yoki bajarayotgan vazifasiga kura ikki guruxga ajratiladi. Ba`zi pragmemalarda faqat pragmatik vazifasiga ko`ra dominantlik xususiyati mavjud bo`ladi. Bunday pragmemalar faqat adresat ruhiyatiga ta`sir etish uchun mo`ljallangan bo`lib, ular axloqiy holatni boshqarish uchun tayinlangan bo`ladi.

Qo`y, quy qiyi va kichik ro`molchada bir changal jun bog`langan yukni ortib olgan mashina baland qirdan tushib, ko`zdan pana bo`lganida, Jura ferma:
- Ketdi! - dedi chuqur uf tortib, keyin nosini tufurib tashlab, - Mumsik! - deya qo`shib qo`ydi. (N.Aminov).

Bu matnda "mumsik" so`zi muallifning emotsional baholash mazmunidagi munosabatini ifoda etadi.

- Bu ... Xo`jaqulovani taniysizmiq

-....

- Taniyman! - dedi Basharjon manglayini silab. - Bir oz mahmadanaroq. (N.Aminov).

Mumsik, mahmadana, chaqimchi, yengiltak, ikkiyo`zlamachi, ayyor, munofiq kabi so`zlar pragmemalar sifatida emotsional baho maydoni birliklari sanaladi . Bunday birliklar emotsional, emotsional - baho va undash munosabatini ifoda etuvchi pragmatik funktsional maydon yadrosini hosil qiladi. Bu maydon tarkibiga kiruvchi pragmemalar faqat pragmatik vazifaga xoslanganligi bilan xarakterlanadi.

Pragmemalarning ikkinchi guruhiga esa o`zida pragmatik funktsiyaga ega bo`lish bilan birga xabar vazifasidan iborat belgiga ham ega bo`lgan til birliklari kiritiladi. Bunday pragmemalar faqat pragmatik funktsiya bajarish bilan

chegaralanib qolmaydi. Ular axborot berish vazifasini bajarish uchun xizmat qiladi. Biroq bunday pragmemalarning axborot berish vazifasi pragmatik funktsiya uchun ham asos bo`ladi. L.A.Kiselevaning ta`kidlashicha, bunday pragmemalar o`z semantikasiga ko`ra informema bilan privativ oppozitsiyaga kirishadi. Bunday birliklarga emotsional-baho bildiruvchi so`zlar kiradi. Ularda ma`lum fakt haqida axborot berishdan tashuari pragmatik vazifadan iborat so`zlovchining munosabati doimo yoyiq tasvirga ega bo`ladi, bu esa inson axloqiga xos boshqarish munosabatini ifoda etadi. Ana shu funktsiya birinchi darajali qimmatga ega bo`ladi.

Privativ oppozitsiya tushunchasi oppozitsiya a`zolari o`rtasidagi munosabatga ko`ra belgilanadi. Bu privativ belgiga ko`ra, oppozitsiya a`zolaridan biri belgining bor-yo`qligi bilan ikkinchisidan farq qiladigan oppozitsiyadir 1. Bunga ko`ra tilning turli sathlariga aloqador pragmemalar o`zining funktsional ta`sir etish belgisi bilan o`zida pragmatik "yuk" ka ega bo`lmagan informemalar bilan privativ oppozitsiyaga kirishadi. Informemalarda nominativlik, deykliklik, reyaltivlik xususiyatlari mavjud bulsa, pragmemalar so`zlovchi shaxsi munosabati semasi bilan sintagmatik munosabatga kirishuvchi har qanday lisoniy birliklarning nutqiy jarayondagi ma`lum pragmatik nuqtalarga ega bo`lgan bu pragmatik nuqtalar obyektiv olamdagi reallik makon va zamon, shaxs kabi joylashish xususiyatlari bilan pragmatik maydonni hosil qiladi. Pragmatik maydon o`z ichki tasnifida undash, emotsional-baholash, emotsional. estetik o`zaro murojaat kabi kichik sistemalarga bo`linadi.

Pragmema va informemalar oppozitsiya a`zolari o`rtasidagi munosabatga ko`ra teng qimmatli (mantiqan har ikki a`zo teng huquqli bo`lgan oppozitsiya) oppozitsiyalarga ajratiladi. Bunday oppozitsiyaga kirishayotgan informema va pragmemalar mazmunning ifodalanishi va ta`sir etish darajasiga ko`ra mantiqan teng huquqli oppozitsiyani tashkil etadi:

Ham turg`un birikma, ham erkin birikma bo`lgan quyidagi gapni olamiz: Mehmonning kovushini to`g`rilab qo`ymoq.

Ko`rinadiki, turg`un birikma ostidagi ifoda mazmun mohiyati pragmatik qimmatga ega bo`lib, ta`sir etish belgisining mavjudligiga ko`ra pragemma tushunchasini ifoda etadi. Erkin birikma ostidagi ifoda mazmuni informativlik belgisini saqlagani holda, obyektiv olamdagi hodisalarning haqiqiylik shartiga zid tushunchani ifoda etish belgisini aynan informativ mazmunda ham ta`sir etish belgisini yo`zaga chiqaradi. Ana shu belgilari bilan informema dam pragemma dam mantiqan teng huquqli oppozitsiyani hosil qiladi, ya`ni informemada ham pragemmada ham oppozitsiyaga kirishayotgan belgilarning bor yo`qligi saqlangan holda ular ta`sir etish belgisiga ko`ra teng huquqli oppozitsiyani tashkil etadi.

L.A. Kiseleva pragmatika birliklarini til sistemasi sifatida quyi qismlarini ham ko`rsatib o`tadi. Uning ta`kidlashicha, informemaning turlicha ko`rinishi ham o`zgarmas, doimiy pragmatik xususiyatlarga ega bo`lmaydi va intellektual-informativ til maydonida kichik maydonlarni hosil qiladi: a) nominativ substant informema-nominativ maydon birliklari (bularga turli so`z turkumidagi to`liq ma`noli so`zlar kiritiladi); b) deytik informema-deytik maydon birliklari (olmoshlar, shuningdek ravish turkumidagi pragmasemantik komponentlardan mavhum so`zlar kiritiladi); v) reyaltiv informema-munosabat maydon birligi (bog`lovchi va predloglar). Ko`rsatilgan bu til maydonlari informemalarning turlicha ko`rinishlari bo`lib, ularni ajratishda o`zgarmas, barqaror pragmatik xususiyatlarga ega bo`lmaslik belgisi asos qilib olinadi. Reyaltiv strukturaning o`zi "hozirgi tilshunoslikda gap orqali ifodalanishi ikki xil belgilanadi. Bir o`rinda axborot to`zilishi subyekt-predikat to`zilma holidagi, ikkinchisida ma`lum munosabat bilan boglangan predmetlar sistemasi sifatida tasavvur qilinadi". Birinchisi relyativ til maydoni sifatida til sistemasini tashkil etgan informema sanaladi. Munosabat ifodalash yo`nalishiga o`tishi bilan pragmatik til maydonini tashkil etadi.

Pragmatik maydon tushunchasi ostida matn muallifining obyektiv borliqda, shuningdek o`zi ifodalayotgan fikrga munosabatni ifodalash funktsiyasi nuqtai nazardan til va nutq birliklarining o`zaro ma`lum bir sistemani hosil qilishi nazarda tutiladi. Har qanday pragmatik maydon birliklari ortida shaxs munosabati

mavjudligi ichki his-tuyg`ulari hamda bosh maqsadi bilan aloqador har qanday til elementlari pragmatik maydon tushunchasini ifoda etadi. Chunki til birliklariga xos barcha bog`lanish imkoniyatlari, ayniqsa, "ko`p o`rinli" (A.Nurmonovga tegishli) bog`lanish imkoniyatlari gap valentliklari ba`zida-kutilmaganda namoyon bo`luvchi kontekstual ma`no bosqichida o`zining pragmatik semasi bilan pragmatik maydonga aloqador bo`ladi. Masalalan, "Bola bola-da" jumlasida "Bolalarning kattalardek bo`lmasligi, ularning yoshligi, vurligi, tajribasizligiga" ishora qiluvchi munosabat semasi bilan pragmatik maydon tarkibiga kiradi.

Umuman, pragmatik maydon tushunchasi o`zining quyidagi ikki asosiy funktsional belgi xususiyatlariga ko`ra ajratiladi.

1. So`zlovchi ichki his-tuygulari bilan bogliq affekt belgilar yuklatilgan barcha elementlar pragmatik maydon doirasiga birlashadi.

2. Ma`lum maqsad asosidagi shaxs munosabatini ifoda etib, atrofdagilarga ta`sir etish uchun tayinlangan barcha elementlar pragmatik maydonga birlashadi.

Pragmatik maydonning yo`zaga kelishi tilning kommunikativ vazifasi bilan o`zviy bogliq bo`ladi. Chunki kommunikativ funktsiyaning o`zi quyi sathda ikki guruhga ajratiladi. Bunga ko`ra, har qanday matn tarkibida til va nutq birliklari ikki xil qimmatga ega bo`ladi. Birinchisi, bayon qilinishi lozim bo`lgan axborot ko`rinishining sof intellektual - xabar mazmuniga ega bo`lishi deb qaralsa, bu qoidaga binoan, bayon qilingan intellektual-xabar mazmuni, asosan, matn semantikasida o`z ifodasini topgan obyektiv mazmundan iborat bo`ladi. Bunday matnlarda gapning yadroviy sathiga oid mazmuniy strukturalar ishtirok etmaydi. Matn muallifining obyektiv borliqqa munosabati ham neytral belgilardan iborat bo`ladi. Ifoda tarkibida so`zlovchi ichki maqsadini aks ettiruvchi yashirin mazmuniy komponentlarning ishtirok etmasligi axborotning sof-xabar mazmunidan iborat ekanligini ko`rsatadi. "Propozitiv nominatsiya mohiyati uchun gapning kommunikativ tarkibi dam e`tibordan taShuarida bo`lmaydi. Gapning kommunikativ to`zilishi uning nominativ to`zilishiga ham ta`sir qiladi. Shunday ta`sir qiladiki, gapning kommunikativ markazi, bir vaqtning o`zida

nominativ asos vazifasini o`taydi . Kommunikativ niyatning ma`lum maqsadga aylana boshlashi bilan intellektual-xabar mazmuni pragmatik maydon uchun xizmat qila boshlaydi. Propozitiv aspektni o`zini nominativ aspekt ham deb yuritiladi.

Tilning pragmatik funktsiyasi ham o`zining quyidagi ko`rinishlariga ega. Pragmatik funktsiya nominativ, deytik hamda relyativ funktsiyalardan farqli ravishda insonning ruhiyatiga ta`sir etishi va mavjudlikdagi voqelikka nutq subyektining xususiy munosabati undash, emotsional-baho, estetik ta`sir etish. o`zaro murojaat kabi turlicha ko`rinishlardan iborat vazifani bajarishi bilan xarakterlanadi. Shunga ko`ra, pragmalingsvistika birligi bo`lgan tilning turli daraja elementlari pragmemas sifatida o`zgarmas pragmatik xususiyatlarga ega bo`lib, ular o`z navbatida pragmatik til maydonini tashkil qiladi. Pragmemalarni kichik tizim sifatida tasnif qilishda pragmatik til birliklari inson ichki ruhiyati bilan aloqador ekspressiv emotsional belgilarning hamda munosabat ifodalashini asos .qilib olinishi juda to`g`ridir.

Pragmemalarni quyidagi tarzda tasnif qilish maqsadga muvofiqdir.

1. Undash pragmemalari yoki undash maydoni birliklari.

(Undov va yuklamalar).

2. His-tuyg`u, baho ifoda etuvchi pragmemas (his-tuyg`u ifoda etuvchi maydon birliklari).

3. Ekspressiv pragmemas - ekspressiv maydon birliklari.

4. Estetik pragmemas - estetik maydon birliklari.

5. Murojaat shakli pragmemasi - murojaat maydon birliklari.

Pragmemalarni pragmatik til birliklari sifatida tasnif va talqin etish nutqiy munosabat mohiyatini aniqlashning bosh mezonini sanaladi.

Xullas, informemas va pragmemalar lingvistik pragmatikaning asosiy birliklari sifatida o`z doirasiga presuppozitsion xabar, propozitsiya, yigiq va yoyiq tasviriy mazmunni qamrab olib, bular nutqda sintaktik birliklar orqali namoyon bo`ladi.

2.4. KTMDning hayotga tadbiqui va pragmalingvistika oldida to`rgan vazifalar

Inson shunchalik sirli "dunyo"ki, ko`pchilik bu dunyo sirlarini biliShuning imkoniyati yo`q deb hisoblaydi. Kubroviya tariqatining asoschisi xorazmlik mashhur alloma Najmiddin Kubro (1145-1221) ta`limotiga ko`ra, insonning o`ziga xos kichik olami - (olami sug`ro) va unda butun olamning (olami kubro) barcha hislatlari o`z aksini topadi. Olamni yaxlit, to`liq holda tasavvur etmoq uchun, ya`ni "olami kubro"ning barcha xususiyatlari haqida batafsil ma`lumotga ega bo`lmoq uchun nafaqat ilohiy olam ("olami kabir"), balki inson olamining siru-sifatlarini bilmoq darkor. Eng asosiysi, allomaning fikricha, inson barcha olamlarning sirini bilib olish imkoniyatiga ega. Buning uchun u tinimsiz izlanishi kerak.

Haqiqatdan ham inson murakkab hodisa bo`lib, uning tabiati va faoliyatini, shu jumladan, lisoniy faoliyatini tadqiq qilish, bilish istagi tadqiqotchidan "nozik did" hamda tadqiq obyektiga nisbatan alohida e`tiborni talab qiladi. Inchinun, tilshunoslikning antropologik qiyofa olishi o`zoq jarayon bo`ldi va bu jarayon turli to`siqlarga uchrab, ularni bartaraf etish umidida turli nazariy g`oyalarga asoslangan holda bosqichma-bosqich kechdi. Jarayon tugaganicha yo`q, u muntazam davom etmoqda.

Bu maqsad, ayniqsa, pragmalingvistik tadqiqotlarda muntazam va izchillik bilan amalga oshirilayotganligini ta`kidlash lozim. Pragmalingvistika o`ta qisqa muddat ichida (ko`pchilik usha yo`naliShuning "oq fotiha" olishini 1970 yilda o`tkazilgan xalqaro simpozium bilan bog`laydilar, boshqalar bu sanani 1957 yildan boshlaydilar o`z tadqiq obyektini, asosiy maqsad va vazifalarini aniqlab, lisoniy bilimning mustaqil sohasiga aylanib ulgurdi. Garchand ushbu mustaqillik nisbatan bo`lsa ham, har holda, pragmalingvistika antropologik tilshunoslikning boshqa sohalariga qiyosan, anchagina barkamollikka etishganligining guvohimiz. hatto uning o`zi ham "sog`in sigir"ga aylanib, fonopragmatika, morfopragmatika, leksikopragmatika, frazapragmatika sohalariga ozuqa bera boshlaganligi buning isbotidir.

Ammo barkamollikning chegarasi yo`q. Insonning dunyoni bilishga intilishi tugamaganidek, fan sohalarining muammolari ham cheksiz. Shunday ekan, pragmlingvistikani ham to`liq mustaqillikka erishdi deyish noto`g`ridir. U doimiy taraqqiyotda, inson lisoniy faoliyati mohiyatining ko`z ilg`amas qirralarini ko`rish, hech bo`lmaganda tasavvurda idrok etish sari intilishda.

Pragmlingvistikaning istiqboli ko`p jihatdan boshqa turdagi fan sohaları bilan munosabatida, ular bilan hamkorligida ko`rinadi. Albatta, pragmlingvistika qator fanlar bilan sarhaddoshlik munosabatlarini, birinchi navbatda, tilshunoslikning yaxlit maydonidan, ushbu fanning tub lingvistik sohalaridan izlash kerak bo`ladi. Darhaqiqat, insonning lisoniy muloqot qobiliyatini o`rganish uchun (bu pragmlingvistik tadqiqning asosiy maqsadlaridan biri) til tizimi, uning alohida sathlariga xos hodisalarga murojaat qilmaslikning iloji yo`q

Biroq bu muammoga qanday qanday yondashish masalalasi noaniqligicha qolmoqda. Binobarin, pragmlingvistikainng fonologiya bilan bog`liq tomonlariga e`tibor etarli emas. Matnda, nutqiy vaziyat doirasida yashirinib turadigan tagma`noni ifodalash usullarini olaylik. Bunda prasodik vositaning o`rni qanchalik yuqori ekanligini doimo sezamiz. Xuddi shuningdek, urg`uning ijtimoiy deysis ifodalash va hurmat tamoyilini voqelantirish uchun qanchalik qo`l kelishi ham ma`lum. Afsuski, fonopragmatik hodisalarning kommunikativ roli, ularning milliy-etnik xususiyatlari, lisoniy faoliyat doirasida mazmun yaratuvchanlik belgilari tizimiy ravishda o`rganishga endigina kirishilmoqda.

Pragmatikaning sintaksis bilan munosabati masalalasi munozarali. D.Laytfut kabi tilshunoslar bunday munosabatning bo`lishini butunlay inkor etishga harakat qilishsa ham, sintaktik elementlarning gap to`zilishidagi o`rni va ushbuning diskurs shakllanishidagi roli pragmlingvistik tahlil uchun muhimdir. Sintaksisning pragmatik "siquv"ga dosh berish darajasi hamda diskurs talabiga moslashishini ta`minlovchi lisoniy omillar qatorini aniqlash muhimdir. Ayniqsa, sintaksisning pragmatik maqsad uchun "xizmati" "tema - rema" yoki "mavzu - izoh" (topic - comment) hodisalari tahlilida muhimdir.

Pragmalingvistikaning sintaksis bilan aloqasi, ayniqsa, uning nutqiy aktlarni guruhlash va tasniflashga oid sohasida yaqqol namoyon bo`ladi. Gaplarning an`anaviy kommunikativ turlari - darak, buyruq, undov gaplar guruhlarining illokutiv mahsadni ifodalash darajasini aniqlash sintaktik to`zilmalarning pragmatik imkoniyatlarni bilish uchun zarurdir. Bundan tashqari gap strukturasi va bevosita nutqiy akt munosabatini o`rganish til tizimidagi ma`no va shakl assimetriasini nutq sathida ko`chishi va pragmatik assimetriyaga aylanish mexanizmlarini aniqlash imkonini beradi.

Pragmatikaning substantsional - formal tilshunoslik yo`nalishidagi tadqiqotlar bilan bog`lanishi, birinchidan, lisoniy birliklar mazmun-mohiyatini yanada batafsil yoritish imkonini yaratsa, ikkinchidan, formal tilshunoslikka "jon", harakat baxshida etadi. N.Chomskiy grammatikani "qobiliyat modeli" sifatida ta`riflaganligini eslaylik. Bu ta`rifga binoan qobiliyat (competence) ideallashtirilgan (har qanday xatolik, qoidaga xiloflik va variantlilikdan xoli bo`lgan) til (ni) bilishdir, unda tilning muloqot matnida qo`llanishi lisoniy qobiliyatdan ajratib qo`yiladi. Natijada pragmatik bilim lisoniy qobiliyat shakllanishida o`z o`rnini topmaydi, degan xulosa o`z-o`zidan paydo bo`ladi. Lekin har qanday grammatik tahlil oxir-oqibat lisoniy birlik, shakllarning ma`nosini, ularning mundarijaviy xususiyatlarini aniqlash vazifasini qo`yadi. Bu birliklarning asl ma`nosi va mazmunini matnga, muloqot muqitiga murojaat qilmasdan turib aniqlash hamda tavsiflash qay darajada mushkul ekanligini bilamiz. Shuning uchun pragmatik ma`lumotlarning semantik-sintaktik tadqiqotlar samarasi uchun muqimligini inkor etib bo`lmaydigan haqiqatdir. Semiotik maydonda pragmatika - semantika - sintaksis uchligi - trixotomiyasi o`zviy zanjir hosil qilishini e`tirof etadigan bo`lsak, unda lisoniy tahlilda ham ajrimchilikning o`ta xavfli usul ekanligini nutmaslik lozim. Pragmatika lisoniy bilim bilan kommunikativ qobiliyat o`rtasida ko`prik vazifasini o`taydi.

Tilshunoslikning sotsiolingvistika, psixolingvistika, kognitiv tilshunoslik kabi sohalaricong pragmatika bilan sarhaddoshligini alohida ta`kidlashga hojat bo`lmasa kerak.

Pragmalingvistlar va kognitologlar bir xilda lisoniy tafakkur faoliyati shu faoliyat asosida yo`zaga keladigan lisioniy-mantiqiy hodisalar - presuppozitsiya, implikatura, illokutiv maqsad kabilarning muloqot matnida voqelanishi muammolari bilan banddirlar. Nutq ijodi faoliyatida uchraydigan pao`za, sukut saqlash, ikkilanish kabi hodisalarning botiniy kognitiv jarayon hodisasi ekanligini bilamiz, ammo ularning aslida kommunikativ maqsad ifodasi uchun xizmat qilishlarini ham unutmaslik lozim. Eng asosiysi, nutqiy muloqot hamkorligining asosiy maqsadi - axborot almashinuvi va bu maqsadga erishish uchun suhbatdoshlar bir-birlarini tushunishlari lozim. Nutqiy hamkorlik samarali bo`lishini ta`minlovchi vosita - muloqot ishtirokchilarining lisoniy-kognitiv qobiliyati. Bu qobiliyat etarli darajada shakllanmagan holatda, kommunikatsiya "til bilmaslar" uchrashuviga aylanadi va natijada maqsadga erishish umidi puchga chiqadi. Bundan taShuari, muloqot matni tagma`noli mazmunga, implikaturali ifoda vositalariga boy ekanligini ham bilamiz. Shuning o`zigina pragmatik mazmun tahlilini kognitiv jarayonlar tadqiqidan ajratiShuning imkoni qanchalik darajada chegaralanganligidan dalolat beradi. Lingvistik tahlilda pragmalingvistikaning vazifasi ilmiy mushohada uchun "xom ashyo", material tayyorlashdek ko`rinsa, kognitiv tadqiqda esa ushbu "xom ashyo" tajriba sinovidan o`tkazilib, yakuniy xulosa uchun zamin yaratiladi.

Pragmalingvistika va sotsiolingvistika yo`nalishlarining uchrashuv chorrahaları shunchalik ko`pki, bu chorrahalaridagi chiroqlar ham qaysi yo`nalishga qachon yonish tanlovida shoshib qolishlari to`rgan gap. Bu sohalar yaqinligi shu darajadaki, hatto ayrimlar pragmatikani hozirgacha sotsiolingvistikaning alohida bir qismi sifatida ta`riflab kelmoqdalar. Shuning bilan birgalikda, pragmalingvistikaning tadqiq huquqiga ega ekanligi, bu tadqiqotlarda alohida maqsad va vazifalar ko`zlashini hech kim inkor qilishga jazm qilganicha yo`q. Mustaqillik huquqiga erishgan pragmatika sotsiolingvistika bilan qarindoshchilik rishtalarini o`zgani yo`q va bu rishtalar yangi shakllanayotgan yo`nalishlar - sotsiopragmatika va etnosotsiopragmatikani ozuqa bilan ta`minlab turishibdi.

Muloqot jarayonida, u ogʻzaki yoki yozma boʻlishidan qatʼiy nazar, inson, shaxslararo munosabatni taʼminlash vazifasidan taʼshuari, matn yaratish va fikrni oʻzviy ifodalash vazifalari roʻyobga chiqadi. Shu sababli muloqot mahsuli diskursni turli nuqtai nazardan tadqiq etish talabi mavjud. Diskursning toʻzilishi va tarkib topishini tadqiq etish maqsadi koʻzlanganda, eʼtibor matn kogerentligi, qismlar tartibiga va boshqa strukturaviy xususiyatlarga qaratiladi. Diskursning pragmlingvistik talqini uchun esa mazmun ifodasi, uning zohiriy va botiniy belgilari, tagmaʼno turlari hamda kommunikantlar bilim doirasi, ular bir-birini tushunishini taʼminlovchi kognitiv-semantik hodisalar tadqiqi muhimdir. Ammo diskursning strukturaviy va pragmatik - kognitiv qatlamlari bir xilda milliy-madaniy qobiqqa egadirlar.

Voqelik bilan munosabatga kirishayotgan, uni idrok etayotgan shaxs ongida maʼlum miqdordagi axborotning oldindan mavjud boʻlishini ham unutmasligimiz kerak. Shu sababli har bir inson "shaxsiy kognitiv maydon"ga ega boʻlish va shu asosda "jamoat ("milliy") kognitiv maydoni" hamda "kognitiv bazasi" shakllanadi.

Kognitiv baza, soʻzsiz, etnik, milliy koʻrinishga ega. Ammo bu xususiyatlar kognitiv maydonda qanday harakatda boʻladi-yu, muloqot faoliyatining qaysi jihatlariga bevosita taʼsir oʻtkazadi Bu savol koʻpdan buyon psixolingvistlar diqqatini tark etmayotgan boʻlsa, endilikda u kognitolog va pragmlingvistlar uchun ham dolzarblashdi.

Madaniy stsenariy" tushunchasidan foydalangan holda muloqot birliklarining milliy- madaniy xususiyatlarini tizimli ravishda tavsiflash mumkin. Muloqot matnining tarkib topishi ikki bosqichli faoliyatdan iborat. Bu faoliyatning birinchi bosqichi kontseptual xususiyatga ega boʻlib, aynan shu bosqichda kommunikativ maqsadga mos keladigan freym shakllanadi. Masalalan, ishontirish, qoʻrqitish, soʻrash, talab qilish, taklif qilish, ogohlantirish kabi illokutiv maqsadni koʻzlovchi nutqiy harakatlarni voqelantiruvchi freymlar muloqot strategiyasini belgilaydilar. Ikkinchi, yaʼni diskursiv bosqichda kontseptual toʻzilma - freym oʻz lisoniy ifodasini topadi.

Axborot almashinuvining mazmuniy negizini tashkil etuvchi kontseptual to'zilma - freymning turli milliy-madaniy muhitlarda tarkiban mos kelmay qolish holatlariga izoh berish niyatida ba'zi misollarga murojaat qilsak.

Tasavvur qilingki, inglizabon do'stingiznikida choy ichyapsiz, u sizga mehmondo'stlik ramzi sifatida "Yana choy ichasizmiq" deb so'ramoqchi. Siz ham mehmondo'stlikka tashakkur bildirasiz. Shunda do'stingiz so'rovni davom ettirishga majbur: "ha" rahmatmi yoki "yo'q" rahmatmiq

Nutqiy muloqotdagi bunday anglashilmovchilikning sababi tashakkur iborasining noto'g'ri shalda bo'lishida emas, balki o'zbek millatiga xos madaniyat normasidir. Ma'lumki, mehmonda bo'lib qanchalik darajada mezbon iltifotidan baqramand bo'lishuni istasak ham, hech qachon uning "Ovqat yesizmiq", "Choy ichasizmiq" qabilidagi savoliga to'g'ridan-to'g'ri tasdiq javobini bermaymiz. "Rahmat!" deyishuning o'zi iltifotning qabuli emasmiq!

Umuman, sharqona muomala madaniyatida "ha" va "yo'q" ning ifodasida keskin chegara yo'q. Yaponlar har qadamda ishlatadigan "hay" iborasini evropaliklar "ha" mazmunida tarjima qilishadi. Xuddi shuningdek, o'zbek tilidagi "xay", "xo'p" iboralari ham tasdiq, rizolik mazmunida qabul qilinadi. Aslida, ushbu iboralarni qo'llayotgan yapon ham, o'zbek ham to'g'ridan-to'g'ri rozilikni bildirayotgani yo'q; u "Sizni tingladim va tushundim, endi qanday javob beriShuni va nima qiliShuni o'ylab ko'raman" demoqchi.

Umuman kommunikativ maqsad - intentsiyani botiniy, yashirin holda yoki bivosita ifoda etish barcha millatlarga xosdir. Lekin bilvosita nutqiy aktlarning tasnifiy guruhlari va ularni ifodalovchi lisoniy shakllar qatori turli tillarda bir xil ko'rinishga ega bo'la olmaydi. Masalalan, frantso'z maqto'v, tahsin izhor etishi uchun panjasining uchini o'pib qo'ysa etarli. Inglizlar mazmunni bilvosita ifodalashda ko'pincha so'roq shakllariga murojaat qiladilar. O'zbeklar nutqida iltimosni ifodalashda savol shakllaridan kamroq foydalaniladi. Turli millat vakillarining sergaplik darajasi ham bir xil emas, ko'p gapirishdan turli maqsad ko'zlanishi mumkin. Markaziy Osiyo xalqlariga "ahvolingiz qandayq Uy ichi, bola-chaqa tinch-omonmiq" savollari bilan murojaat qilinganda, "Xudoga shukr!"

javobini oliShuning o`zi etarli. Xuddi shu savolni anglosaksonlarga bersangiz, ularni hayron qoldirishingiz va umuman javob olmasligingiz mumkin. Olmonlar esa batafsil javobga tayyorlar, ulardan hatto o`z organizmlari, tana a`zolarining qay ahvolda ekani haqida ham ma`lumot olishga tayyor turavering. Yaponlar esa har qanday savolga to`g`ridan-to`g`ri va aniq javob berishdan qochadilar.

Insoniyat uchun umumiy bo`lgan tushunchalar, kontseptlar mavjudligini bilamiz. Bular qatoriga masalalan, zamon va makondan taShuari, haqiqat, yolg'on, sevgi, sha`n, burch, adolat, hurmat, qasd, g'azab kabilar kiradi. Bunday kontseptlar barcha xalqlar uchun qanchalik umumiy bo`lmasin, ammo har bir xalq ularning mazmunini o`zicha tasavvur etadi va talqin qiladi. Binobarin, shved va o`zbek "sha`n" so`zini bir xilda tushunmaydi, xitoy va ingliz uchun "burch" bir xil ma`no anglatmaydi. Biz uchun yil to`rt faslga bo`linsa, saam elati uni sakkiz davr (fasl)dan iborat deb tasavvur qiladi. Umumiy tushunchalar talqinidagi bunday nomuvofiqliklar madaniyatlararo muloqotda turli noqulayliklar tug`diradi. Inglizlar va olmonlar tarixan bir urug'dan tarqalishgan. Ularning tillari qon-qarindoshdir, lekin shu millatlar ham umumiy tushunchalarni turlicha idrok etishib, ularni turlicha shakllarda ifodalashlari mumkin.

Milliy-madaniy xususiyatdagi axborot lisoniy, psixologik, ijtimoiy axborot bilan hamjihatlikda kommunikativ- pragmatik maydonni tashkil qiladi va nutqiy muloqot faoliyati shu maydon doirasida kechadi. Bu turdagi axborot jamlanmasi kommunikantlarning muloqot qoidalarini bilish darajasini belgilaydi. Xuddi shu axborotlar u yoki bu turdagi lisoniy to`zilmalarning biror bir aniq muloqot kontekstiga, muhitiga mos kelishi yoki kelmasligini aniqlash uchun xizmat qiladilar. Demak, qiyosiy pragmalingsvistika, dastavval pragmatik mazmunning madaniyatlararo, tillararo qanchalik darajada mos kelishi va ushbu mazmunni tarkib toptiruvchi omillarning kommunikativ -pragmatik maydondagi harakat miqyosi haqidagi ma`lumotlarni yigish bilan mashhul bo`lmogi darkor. Bunday yo`nalishdagi tahlil tillararo pragmatika tadqiqotlarining vazifasidir. Bundan taShuari, qiyosiy pragmalingsvistikada tahlilning boshqacha, ya`ni shakldan mazmunga yo`li ham tanlanishi mumkin va bunda biror bir lisoniy shakl,

to`zilmaning pragmatik ma`no xususiyatlarini aniqlash hamda ushbu shakl-to`zilmaning boshqa tildagi pragmatik imkoniyatlarini qiyoslash maqsadi ko`zlanadi.

Har qanday ko`rinishdagi qiyosiy-paragmatik va etnosotsiopragmatik tadqiqotlar natijalari, so`zsiz, ilmiy-amaliy ahamiyatga molikdirlar.

Pragmalingvistikaning va umuman, tilshunoslik fanining amaliy jihatlari, olib borilgan tadqiqotlar natijalarining amaliyotga, ijtmoiy tajribaga tadbiiq etilishi masalalasi alohida muhokamaga loyiqdir.

Lingvistik tadqiqotlar natijalarining boshqa fanlar (masalalan, ritorika, nutq madaniyati, jamiyatshunoslik, tarix, siyosatshunoslik va boshqa fanlar) taraqqiyotiga ta`siri barchaga ma`lum. Keyingi yillarda tilshunoslikning tabiiy fanlar bilan munosabati masalalasiga alohida e`tibor qaratilmoqda .

Lisonning inson tajribasi va faoliyatida tutgan o`rni bilan qiziqqan soha - pragmalingvistikaning til va uning vositasida bajariladigan muloqot faoliyatining xususiyatlari haqidagi bilimning miqyosan hamda miqdoran kengayishi, boyishi uchun xizmat qilishi to`rgan gap. Lekin ushbu "xizmat"ni faqatgina ilmiy tafakkur rivoji miqyosida ko`rmasdan, balki amaliy faoliyat doirasida namoyon bo`lishi darajasiga ham e`tibor berish kerak. Pragmalingvistikaning amaliy foydasi tegadigan sohalardan biri ta`lim va tarjima faoliyatlarini avtomatlashtirish, ularga axborot texnologiyalarini tadbiiq etish bilan mashhul bo`lgan informatika va komp'yuter tilshunoslik sohalaridir.

Ma`lumki, informatika, axborotni yozib olish, saqlash va qayta ishlash bilan bog`liq bo`lgan ilmiy va amaliy faoliyat haqidagi fan sifatida inson tili va nutqiy faoliyati haqidagi ma`lumotlarga ega bo`lishga majburdir. Lisoniy ta`minot masalalasi informatikaning o`ta muammoli masalalasidir. Soha mutaxassisi Yu.N.Marchuk ta`kidlaganidek, "informatikaning lingvistik muammolari informatikaning o`zining boshlanishidayoq paydo bo`ladi" . Komp'yuter jihozlarining lisoniy ta`minoti negizida inson lisoniy faoliyatining elektron modelini yaratish maqsadi turadi. har qanday modeldan yoki namunadan aslning aksi bo`lishi yoki hech bo`lmaganda, uning asosiy xususiyat - belgilarini aks

ettirish talab qilinadi. Aks holda, modelni "siniq ko`zgu"dagi suratga qiyoslashi hech gap emas. Albatta, axborot texnologiyalarining lisoniy asoslarini yaratish borasidagi urinishlar o`z samarasini berayotganligining guvohimiz. Masalalan, mashina tarjimasi tajribasini olaylik. Hozirgi kunda dunyoning ko`p mamlakatlarida mashina tarjimasi tizimlari va ulardan ayrim ehtiyojlar uchun mutaxassislar foydalanmoqdalar. Ammo avtomatlar maxsus (ilmiy-texnik, rasmiy hujjatlar kabi) matnlarni tarjima qilayotganlariga qaramasdan, bu tarjimalar muharrirlik to`zatishlariga muqtojdir. Adabiy matnlarning tarjimasi haqida gapiriShuning qojati yo`q.

Avtomatik tarjima sohasining bunday "oqsoqligi", samaraning pastligining sababi lisoniy ta`minotning etarli emasligida. Informatikaning lingvistik ta`minoti bilan shuquillangan komp'yuter tilshunosligi uy paytgacha e`tiborni asosan til tizimiga, uning struktural xususiyatlariga qaratib kelmoqda, ushbu tizimning qayotiyiligini, insoniyat eqtiyojini qondiruvchi vosita ekanligining isboti bo`lgan nutqiy-tafakkur faoliyati esa nazardan ancha chetda qoldi. Yo`q, balki "nazardan chetda qoldi" deyishim noto`qru bo`lar, yaxshisi, "nutqiy faoliyat tizimi, muloqotning kechishi, uning mohiyati hamda uning harakatini ta`minlovchi lisoniy va nolisoniy faktorlarning o`zi kam o`rganilganligi sababli informatikaning lisoniy ta`minoti sohasi mutaxassislari bu tizimni dasturlashda katta to`siqlarga duchor bo`lishdi" deganim ma`quldir. Ishonamanki, endilikda, pragmalingvistika taraqqiyoti davrida, bu mushkulotni engish osonlashadi. Buning uchun, masalalan, inson -komp'yuter muloqotida o`ziga xos maslaqatchi vazifasini bajaruvchi ekspert tizimlarini qayta ishlash lozim bo`ladi. Zero, mavjud ekspert tizimlarida saqlanayotgan ma`lumot asosan lisoniy birliklarning formal va qisman semantik ko`rinishlari haqidadir. Tabiiyki, bu ma`lumot avtomatni diskursiv faoliyat mahsuli bo`lgan matnning mazmunini to`liq anglash va uni qayta yaratish uchun etarli emas. Bu talabga javob berish uchun intellektual tizimlar inson nutqiy faoliyatining samaradorligini ta`minlovchi barcha pragmatik tamoyillarni aks ettiruvchi ma`lumotlar bilan to`ldirilishi kerak. Faqat shundagina ushbu tizimlar lisoniy faoliyatni aniq

modellashtirish qobiliyatiga ega bo`ladi hamda shu yo`sinda ularning kommunikativ imkoniyatlari boyiydi.

Tilshunoslikning navqiron sohasi - pragmalingvistikaning istiqboli haqida fikrlar ko`p, ularni davom ettirish mumkin. Istiqbol endi boshlanmoqda. Pragmalingvistikaning "qizaloqlari" etnopragsmatika, sotsiopragsmatika, etnosotsiopragsmatika, madaniyatlararo pragsmatika, qiyosiy pragsmatika kabilarning taraqqiyoti nutqiy faoliyat haqidagi yangi nazariy fikrlarning tug`ilishiga sabab bo`lishi bilan bip qatorda, til ta`limi uslubiyatining yangi qoyalar, metodlar bilan boyitishiga gumon yo`q. Bundan tashuari, pragmalingvistik bilim millatlararo, xalqaro munosabatlar, ishbilarmonlik sohasidagi muloqot ko`nikma-malakalarini o`stirish amaliyotida muqim o`rin egallashi ham aniq. Xullas, pragmalingvistika inson lisoniy faoliyatini ilmiy-amaliy tadqiq etishuning istiqbolli yo`nalishi bo`lib, uning ilmiy bilish tizimidagi o`rni qat`iylashmoqda.

UMUMYI XULOSA

1. O'zbek tilshunosligida XX asrning 30-yillaridan keyin shakllangan, tilimiz tavsifiga xizmat qilgan va qilayotgan tadqiq va tahlil usullarini "sistemaviy" va "nosistem" kabi turlarga ajratish, ularni o'zaro qarama-qarshi qo'yish etarli ilmiy asoslarga ega emas, zeroki tilimiz ichki qurilishi va to'zilishiga ko'ra sistema tabiatiga ega ekanmi, u qanday usul bilan tavsiflanishiga qaramay, - tavsif usuli til hodisalarini haqqoniy, tilimizda qanday bor bo'lsa, shunday tavsiflasa, - sistemaviy mohiyatga ega bo'ladi. Lekin til sistemasi serqirra, ko'p tomonli, rang-barang aloqali dialektik butunlik bo'lganligi, tilshunoslik fani o'z davrining ilg'or fanlaridan hech qachon to'la o'zila olmasligi sababli metodologik tayanch nuqta sifatida olingan sistema haqida ilmiy tushuncha davr fanlari bilan bog'liq ravishda o'zgarib, yangilanib, murakkablashib boradi. Shuning uchun tilshunosligimizda 30-60-yillarda ommalashgan sistema tushunchasi bilan 70-80-yillardagi sistema tushunchalari bir biriga to'la mos kelmaydi. Shunday bo'lsa ham, ular bir birini inkor etmaydi, balki tilimizning turli qirralaridan ayrimlarini chuqurroq va mukammalroq aks ettirishga xizmat qiladi.

2. Pragmatika tilshunoslik faning nazariy va amaliy tarmogi sifatida insonning ijtimoiy faoliyatini o'zida mujassamlashtirgan nutqiy jarayon, nutqiy vaziyat ta'siri bilan namoyon bo'luvchi nutq ishtirokchilariga xos kommunikativ niyat bilan alokador masalalalarni o'rganadi.

3. Gapdan anglashilgan mazmun bilan sub'ekt munosabati pragmatikaga daxldordir. Nutqiy akt indikativ bo'lmagan so'zlar, matn, nutqiy vaziyat, so'zlovchi shaxsi kabi tushunchalar lingvistik pragmatikning markaziy tushunchalari sanaladi

4. Informema va pragmemalarni pragmatik til birliklari sifatida tasnif va talqin etish nutqiy munosabat moxiyatini aniklaShuning bosh mezoni sanaladi.

5. Informema va pragmemalar lingvistik pragmatikaning asosiy birliklari sifatida o'z doirasiga presuppozitsion xabar, propozitsiya, yigiq va yoyiq tasviriy mazmunni qamrab olib, bular nutqda sintaktik birliklar orkali namoyon buladi.

6. Pragmalingvistika inson lisoniy faoliyatini ilmiy-amaliy tadqiq etiShuning istiqbolli yo'nalishi bo'li6, uning ilmiy bilish tizimidagi o'rni qat'iylashmoqda.

FOYDANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI

1. Karimov I. Yuksak ma’naviyat – yengilmas kuch. -T.: Ma’naviyat, 2008.-176 b.
2. Бозоров О. Ўзбек тилида даражаланиш. - Т.: Фан. 1996. 132 б.
3. Воҳидов Р., Неъматов Ҳ., Маҳмудов М. Сўз бағрида маърифат.-Т.: Ёзувчи. 2001. -144 б.;
4. Лингвистический энциклопедический словарь. - М. : СЕ. 1990.Б.558.
5. Мамадалиева М. Ўзбек тилида номинатив бирликларнинг коннотатив маънолари. Номз.дисс. Тошкент, 1998.
6. Маҳмудов Н. Ўзбек тилшунослигининг тараққиёти. //Ж. Ўзбек тили ва адабиёти. 2001.№4. Б.5
7. Маҳмудов Н. Пресуппозиция ва гап. УТА. 1986 йил, 6-сон, 30-бет.
8. Маҳмудов Н., Нурмонов А. Ўзбек тилининг назарий грамматикаси. Синтаксис. - Т.: Ўқитувчи. 1995 .166 б.
9. Менглиев Б.Р. Морфологик воситаларнинг маъновий хусусиятлари ва синтактик имкониятлари: Филол.фанлари номзоди ...дис.автореф.- Т.: 1996.
10. Набиева Д. Ўзбек тилида лисоний бирликларнинг вариант-инвариант муносабати. Филол. фанлари номз... дис. автореф.- Т.: ТАИ 1997.
11. Неъматов Ҳ. Бозоров О. Тил ва нутқ. - Т.: Ўқитувчи, 1993. 32 б.
12. Неъматов Ҳ. Тажалли, тасаввуф билиш назарияси ва синтаксисни ўрганиш муаммолари //Ж.Ўзбек тили ва адабиёти. -1993.-№ 2. -Б.12-16.
13. Нигматов Х.Г. Функциональная морфология тюркоязычных памятников XI-XIII вв. - Т.: Фан, 1989. -200 с.
14. Нурмонов А., Шаҳобиддинова Ш., Искандарова Ш., Набиева Д. Ўзбек тилининг назарий грамматикаси. Морфологий. -Т.: Шарқ. 2001. 164 б.
15. Нурмонов А. Ўзбек тилшунослиги тарихи. - Т.: Ўзбекистон. 2002 Б.219-222.

16. Нурмонова Д. А. Ўзбек тилида парадигма аъзолари ўртасидаги зидланишнинг муътадиллашуви (Фонологик сатҳ). Филол.фанлари номз.... дис. автореф.- Т; ТАИ. 1998.
17. Нурмонов А. Структур тилшунослик: илдизлари ва йўналишлари. - А.:З.М.Бобур номидаги Андижон Давлат университети нашриёти, 2006. -182 б.
18. Нурмонов А., Йўлдошев Б. Тилшунослик ва табиий фанлар. -Т.: Шарқ. 2001. 134 б.
19. Нурмонов А., Маҳмудов Н., Аҳмедов А., Солихўжаева С. Ўзбек тилининг мазмуний синтаксиси. - Т.: Фан .1992.. 296 б.
20. Нурмонов А. ва бошқалар. Ўзбек тилининг мазмуний синтаксиси.Тошкент.1962. -Б.26.
21. Нурмонов А. Ўзбек тили фонологияси ва морфологияси. Тошкент 1990, -Б.13.
22. Сафаров Ш. Когнитив тилшунослик.-Жиззах:сангзор, 2006. -91 б.
23. Сафаров Ш. Прагмалингвистика. -Т.:ЎЗМЕ, 2008, - 286 б.
24. Сафаров Ш., Тоирова Г. Нутқнинг этносоцио- прагматик таҳлил асослари. Ўқув қўлланма. -Самарқанд. 2007. - 40 б.
25. Сафаров Ш. Система речевого общения: Универсальное и этноспецифическое. Самарканд. Сам. отд. Изд-ва им. Гафура Гуляма.1991. С.5-12
26. Сайфуллаева Р., Менглиев Б., Боқиева Г., Қурбонова М., Юсупова З., Абўзалова М. Ҳозирги ўзбек адабий тили. Ўқув қўлланма. Т.: Фан ва технология, 2009.- Б.28-36.
27. Умумий ўрта таълим давлат таълим стандарти ва ўқув дастурлари. Она тили. Адабиёт. Ўзбек тили //Ж.. Таълим тараққиёти. 1999.№ 1-махсус. - Б. 64.
28. Қодиров П. Тил ва эл.Тошкент. 2005.

29. Курбонова М.М. Ўзбек тилшунослигида формал-функционал йўналиш ва содда гап қурилишининг талқини. Филол.фанлар докт. ...дис. автореф. -Т.: ТАИ. 2001.

30.Ғиёсов С. Ўзбек тилида субъектив баҳо сифатларининг семик таҳлили. Ж. ЎТА 1986. №2. Б. 28-44.

31. Ҳаққул И. Тасаввуф ва шеърят. -Т.:Адабиёт ва санъат нашриёти, 1991.-184 б.

Internet ma'lumotlari

www.ziyonet.uz

www.google.uz